

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti

**“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” kafedrası**

5111600- “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” ta'lim  
yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

**Alimov Bobur Alisher o'g'lining**

**«O'zbekistonda inson huquqlariga doir  
xalqaro hujjatlarning  
implementatsiyamasalalari»**

mavzusidagi

## **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ish ko'rildi va himoyagatavsiya  
etildi. “Milliy g'oya, ma'naviyat  
asoslari va huquq ta'limi” kafedrası  
mudiri

\_\_\_\_\_ **R.J.Mahmudov**

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2016 yil

Rahbar: “Milliy g'oya, ma'naviyat  
asoslari va huquq ta'limi”

Kafedrasikatta o'qituvchisi

\_\_\_\_\_ **N.Djanibekova**

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2016 yil

**Guliston 2016**

Bitiruv malakaviy ishi Guliston davlat universitetining 2016 yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Davlat attestatsiya komissiyasining \_\_\_\_\_-sonli yig'ilishida muhokama qilindi va "\_\_\_\_\_"ball bilan (\_\_\_\_\_) baholandi.

**(a'lo, yaxshi, qoniqarli)**

Bitiruv malakaviy ishi "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq" ta'limi kafedrasining 2016 yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ – sonli Ilmiy-uslubiy kengashi qarori bilan Davlat attestatsiyasi komissiyasiga himoya qilish uchun tavsiya etildi.

**Fakultet dekani**

**i.f.d. prof A.Mamatov**

Bitiruv malakaviy ishi "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq" ta'limi kafedrasining 2016 yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ – sonli yig'ilishida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi.

**Kafedra mudiri**

**f.f.n. dots R.Mahmudov**

Bitiruv malakaviy ishi "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq" ta'limi yo'nalishi 39-12 guruh talabasi \_\_\_\_\_B.Alimov

**Rahbar**

**katta o'qituvchi N.Djanibekova**

## **REJA:**

**Kirish**.....4-9

### **I-BOB. Inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlar tiziming rivojlanishi.**

- 1.1. Inson huquqlariga doir xalqaro hujjatlarning umumiy tavsifi va turlari...10-17
- 1.2. Inson huquqlari bo'yicha qonunchilikning taraqqiyot bosqichlari.....18-27
- 1.3. Xalqaro hujjatlar implementatsiyasi tavsifi.....28-37

### **II BOB. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarning implementatsiyasi.**

- 2.1. O'zbekiston Konstitusiyasida Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi qadriyatlarining aks ettirilishi..... 38-47
- 2.2. Inson huquqlariga oid xalqaro paktlar, shartnomalarda aks ettirilgan normalarni milliy qonunchilik tizimiga kiritish va bu jarayondagi muammolar.....48-52
- 2.3. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari bo'yicha milliy tajriba va amalga oshirilayotgan islohotlar.....53-61

**Xulosa va tavsiyalar**.....62-71

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**.....72-75

## Kirish

Uch mingyillik boshlariga kelib, inson huquqlari muammosi kutulmagan sur'atda keskinlashib ketdi. Hozirgi kunga qadar bir savol muammoni hal qilishda kundalangligicha turibdi: inson huquqlari bo'yicha halqaro huquq normalari nimani anglatadi va uning zamirida yuzaga kelgan milliy qonunchilikka kiritish jarayoni qanday darajada bo'lishi lozim. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda inson huquq va manfaatlarini himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Istiqloлга erishgandan so'ng O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan dastlabki xalqaro hujjatlardan biri Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi edi. Konstitutsiyaviy sud, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti va Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi kabi tashkilotlar bevosita inson huquqlarini muhofaza qilishga qaratilgan milliy demokratik institutlar sifatida tan olindi. Ular inson huquqlari xalqaro hujjatlarning implementatsiya jarayonida hamda milliy qonunchilik bazasiga kiritishda, demokratik an'analarning qaror topishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusi dolzarbligi.** Istiqlol sharofati bilan dunyo xaritasida jahonda mustaqil yangi davlat - O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. Mustaqillik yillarida tubdan yangi o'zbek milliy huquqiy tizimi shakllandi, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan, erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan demokratik davlatning konstitutsiyaviy va huquqiy asoslari yaratildi. Respublikamizda qisqa muddat ichida inson huquqlariga oid qonunlar tizimi ham yaratildi. Bu borada Oliy Majlisning 11-chaqiriq 12-sessiyasida Prezidentimiz I.A.Karimov «...boshqa sohalar qatori davlat qurilishini iqtisodiy isloh qilish, ma'naviy yangilanish, siyosiy tizimni shakllantirish va jamiyatning demokratik asoslarini vujudga keltirish, inson

huquqlarini va erkinliklarini himoya etish sohalarida ham yangi mustahkam huquqiy zamin yaratilganligini»<sup>1</sup> alohida ta'kidladi.

Davlat-inson ongining mahsulidir. Ana shu fikrga asoslanadigan bo'lsak, inson ongi tomonidan yaratilgan barcha narsalar yakuniy maqsadda inson ehtiyojini tobora ko'proq qondirib borishi kerak. Insonga munosib turmush, munosib mehnat sharoiti, ish bilan ta'minlash, siyosiy erkinligini, shaxs kamoloti, ma'naviy yuksalishini ta'minlamoq lozim. Inson tug'ilishidan to umrining oxirigacha huquq va erkinliklarning berilishi Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan. Inson huquqlari va erkinliklari uning inson sifatida yashashining zarur sharti, tabiiy ehtiyojidir. Insonning inson sifatidagi ana shu va boshqa tabiiy ehtiyojlari, huquqlari, erkinliklari bo'g'ib qo'yilmasligi kerak. Shu narsani afsus bilan aytish mumkinki, jahonning ayrim mamlakatlarida mazlum ommaning insoniy huquqlari va erkinliklarini chegaralab qo'yish, poymol qilish hamon davom etmoqda. Bu oddiy kamchilik emas, balki butun insoniyat va tarix oldidagi og'ir jinoyatdir.

Har qanday mamlakatning demokratik va insonparvarlik xususiyatlaridan biri - insonga bo'lgan munosabat, inson huquqi va erkinliklari qanday himoya qilinayotganligi bilan belgilanadi. Umuman inson huquqlarini inson tabiatiga xos, odamzot shusiz yashay olmaydigan huquqlar silsilasi deb ta'riflashimiz mumkin. Inson huquqlari va asosiy erkinliklari bizga insoniy fazilatlarimizni, aql- idrokimiz, iqtidorimiz, vijdonimizni to'la-to'kis kamolga etkazish va ulardan foydalanish, ma'naviy hamda boshqa ehtiyojlarimizni qondirish imkoniyatini beradi. Voyaga yetgan har bir fuqaro shuni yaxshi bilish kerakki, u o'z haq-huquqlari uchun kurashi davomida huquqning uch toifasini alohida muhofaza qilishi zarur. Bulardan birinchisi - fuqaroviy va siyosiy huquqlar, ikkinchisi - iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar, uchinchisi - jamoat va xalqaro tartibotga doir, shu jumladan ekologik va

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov.Bizning yo'limiz- demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarni izchil davom ettirish yo'lidir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning 11-chaqiriq 12-sessiyasida so'zlagan nutqi .T.,2013

madaniy huquqlardan iborat. Davlatimizning qonunchiligiga inson huquqlariga doir xalqaro hujjatlarni moslashtirish, implementatsiya qilish bugungi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishida ham xalqaro tartibotga doir hujjatlarni milliylashtirish muammolari va istiqbollari batafsil yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'zida respublika xalqlarining erki, ruhiyati, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Eng avvalo u xalqaro huquqning umuminsoniy qadriyati va birlamchi huquqiga suyangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo'limi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari deb nomlanib, eng katta bo'lim sifatida o'z ichiga 7 ta bob va 35 ta moddani qamrab oladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega" ekanligi belgilab qo'yilgan. Ushbu huquq va erkinliklar to'la Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi moddalariga, halqaro paktlar va shartnomalarda belgilangan qoidalarga mos keladi. Chunki bizning davlat ushbu halqaro hujjatlarga to'liq qo'shilgan va o'z milliy qonunchilik bazasiga implementatsiya qilishga muvaffaq bo'lgan. Ishimizda inson huquqlariga doir xalqaro andozalarni O'zbekiston Respublikasi sharoitida milliy qonunchilikka kiritish muammolari va uni bartaraf etish yo'llari yoritilgan.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining ilmiy o'rganilganlik darajasi.** Inson huquqlari har bir zamon va makonda ham birlamchi ahamiyat kasb etgan va shunday bo'lib qoladi. Chunki har bir narsaning tagida insonning huquqlari va manfaatlari yotadi. Har qanday kashfiyotlar, qonunlar, islohotlar bu inson va uning manfaatlari uchundir. Umuminsoniy huquqlar zamirida mingyillik tajriba yotganligi bois, ularni davlatimiz qonunchigiga kiritish muhim ahamiyatga egadir. Shuni unutmaslik kerakki, islohotlar yoki qonunlar o'z ijrosini bajaradi, qachonki, uni biz insonlar qabul qilsak. Qabul qilishimiz uchun esa u albatta bizga xizmat qilmog'i, og'irrimizni yengil qilmog'i talab etiladi. Bugungi kunda ushbu dolzarb masalaga I. Karimov asarlari va fikrlari asos qilib olingan. Inson huquqlari va ularni

implementatsiyasi masalalarini boshqa ijtimoiy omillar bilan bog'lab tushuntirgan va tadqiqotlar olib borgan olimlarimiz A.Saidov, X.Boboyev, M.Ahmadshoeva, F. Baqoyevalarning asarlarini keltirishimiz mumkin. Masalan, A.Saidovning "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va inson huquqlari" kitobida inson huquqlarining halqaro miqyosida rivojlanish bosqichlari, inson huquqlariga oid halqaro hujjatlarning O'zbekiston qonunlariga implementatsiyasida uchraydigan muammolarni tahlil qilingan. A. Mamatqulovning "Xalqaro huquq" darsligida ham ushbu masalaga ilmiy yondashgan holda atroflicha to'htalgan. G'.Sirojov "Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasiga sharhlar" nomli tadqiqotida deklaratsiyada belgilangan har bir qoidaga izoh berib chiqqan. X.Boboev va M.Ahmadshoevalar "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: Inson va uning huquqlari eng oliy qadriyat" nomli risolasida inson huquqlarining implementatsiya jarayoniga atroflicha to'xtalganlar. A.Sattarov "O'zbekiston: Inson huquqlari va qonunlari" to'plamida umuminsoniy huquqlar majmuini mamlakatimizda qabul qilingan hujjatlar bilan taqqoslashga harakat qilgan. X.Boboev "Inson huquqlari" darsligida ham inson huquqlari implementatsiyasi bosqichlarini ochib bergan. Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuniga sharhda implementatsiya soziga ham sharh berigan. Lekin biron maxsus adabiyotda implementatsiya jarayonida milliy qonunchilik tizimida transformatsiya qanday ta'sirga ega ekanligi, implementatsiya jarayonining O'zbekistondagi xususiyatlari haqida to'xtamagan. Ishimizda ushbu tomoniga e'tibor qaratganmiz.

### **Bitiruv malakaviy ishi maqsadi va vazifalari.**

**Bitiruv malakaviy ishi maqsadi**—O'zbekistonda inson huquqlariga doir xalqaro hujjatlarni o'rganish hamda ushbu hujjatlarni huquqiy institutlar yordamida milliy qonunchilikka implementatsiya qilish omillar va muammolarini, O'zbekistonda implementatsiya jarayonining boshqa davlatlar bilan farqlarini tadqiq etishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishining mavzuning dolzarbligini hisobga olgan holda bir qator vazifalari mavjud:**

- inson huquqlari turlarining mohiyati va mazmunini ochib berish;
- inson huquqlariga doir xalqaro hujjatlar implementatsiyasining asl mohiyatini aniqlash;
- inson huquqlarini milliy qonunchilikka keng miqyosda jalb qilish jarayonini yoritish;
- inson huquqlarini himoya qiluvchi davlat muassasalarining implementatsiya jarayonidagi o'rnini aniqlash;
- inson huquqlari implementatsiyasi bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish va ushbu muammolar yechimini topish;
- implementatsiy jarayoning O'zbekiston uchun bo'lgan xususiyatlarni ochib berish.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy metodologik asoslari.** Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning fundamental asarlari va nutqlarida inson huquqlari implementatsiyasiga doir huquqiy davlatda vujudga keladigan munosabatlar to'g'risidagi fundamental g'oyalari va ilg'or fikrlari tashkil etadi. Qolaversa A.Saidov, O.Xusanov, O.Karimova, X.Tuychieva, Z.Karimov, X.Bobojev, G'.Axmedov, A.Sattarov va boshqalarning inson huquqlarini implementatsiyaga oid xalqaro andozalar naqadar ahamiyatli ekanligini va uni milliy qonunchilikka kiritish muammolarini bartaraf qilishga qaratilgan bir qancha ilmiy fikr - mulohazalariga tayanib va jamiyatimizda bu borada olib borilayotgan ishlardan namunalar keltirgan holda mustaqil fikr yuritishga harakat qilindi.

**Bitiruv malakaviy ishi ob'ekti.** Bitiruv malakaviy ishi obektini inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro va milliy hujjatlar, ularni milliy qonunchilikka

kiritish bosqichlari, inson huquqlarini milliy qonunchilikka kiritishda qatnashadigan milliy institutlarning maqsad va vazifalari, inson huquqlarini himoya qiluvchi davlat muassasalarining huquqiy maqomi va transformatsiya xususiyatlari, implementatsiya jarayonining asosiy yo`nalishlari tadqiqot predmetini tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalaridan inson huquqlari himoyasi bilan shug'ullanadigan barcha tashkilotlar, milliy xavfsizlik xizmati, ichki ishlar idoralari, huquqshunoslar, o'qituvchilar, inson huquqlari masalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar foydalanishi mumkin. Shuningdek, uning natijalaridan Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida "Xalqaro huquq", "Huquqshunoslik", "Inson huquqlari", "Davlat va huquq nazariyasi", "Konstitutsiyaviy huquq" o'quv fanlarida foydalanishimiz mumkin.

**BMI ning ilmiy yangiligi.** BMI da "inson huquqlari implementatsiyasi" tushunchasi hozirgi davrdagi mamlakatlar o'rtasidagi xalqaro munosabatlar rivojini hisobga olgan holda ilk bora kompleks tarzda, sistemali yondashuv asosida huquqiy jihatdan tahlil qilindi. Alohida mamlakat aholisining huquqiy madaniyatini shakllantirishda va oshirishda davlat tomonidan inson huquqlariga doir hujjatlarni milliylashtirish jarayoni bevosita ta'sir qilish omillari ilmiy asoslandi. Implementatsiya jarayonida milliy qonunchilik tizimida transformatsiya qanday ta'sirga ega ekanligi, implementatsiya jarayonining O'zbekistondagi xususiyatlari haqida batafsil yoritildi.

**Bitiruv malakaviy ishi tuzilishi.** BMI kirish, 6 paragrafni o'z ichiga olgan 2 bob, xulosa, tavsiyalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I bob. Inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlar tiziming rivojlanishi.**

### **1.1. Inson huquqlariga doir xalqaro hujjatlarning umumiy tavsifi va turlari**

Bizga ma'lumki, inson huquqi, ularning tengligi masalasi ko'hna tarix kabi qadimiylidir. Jamiyat taraqqiyotida insonlarning haq-huquqlari va ularning tengligi masalasi ilg'or fikrli kishilarni muttasil jalb etib kelgan. Tarix sahifalari o'zida inson huquqlari masalasiga doir ko'plab e'tiborli voqea va faktlarni, xalqning intilish va harakatlarini muhrlagani hammaga ayon. Insoniyat taraqqiyoti tarixi shunday guvohlik beradiki, qayerda demokratiya ildiz otsa, o'sha joyda inson huquqlari, fuqarolarning tengligi masalasi alohida dolzarflik kasb etadi.

Demokratiyaning ilk vatani hisoblanmish Afina va Rimda inson huquqlari masalasiga doir ilg'or qarashlar va g'oyalar shakllanib, ular «inson barcha narsalarning o'lchovidir, mezonidir» degan qoidani ilgari surishgan, keyinchalik bu qoida Yevropa sivilizatsiyasiga, umuman jahon ilg'or fikrlari rivojiga ulkan ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Quldorlik davlatining o'ziga xos shakli bo'lgan polislar, ya'ni shahar- davlatlar faoliyatida inson huquqlarining dastlabki kurtaklarini, elementlarini ko'rish mumkin. Eramizdan avvali VI asrda hukmronlik qilgan Solon Konstitutsiyasida demokratiyaning ayrim elementlari, davlat organlarining javobgarligi, ma'sulligi, xususan davlat amaldorlarini noqonuniy harakatlari uchun javobgarlikka tortish masalasi mustahkamlangan; hokimiyatlar bo'linishi va tabiiy huquq nazariyasini tan olgan rimliklarning ham jahon demokratiyasi shakllanishdagi o'rni o'zgacha bo'lgan.<sup>2</sup>

Mesopotamiya shahar - davlatlari ham fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabat, ilg'or g'oyalar shakllanishiga o'z hissalarini qo'shgan: hatto, dastlab «Erkinlik» atamasi Shumerda eramizdan avvalgi XXIV asrda ishlatila boshlagan - Shumer hukmdori o'z fuqarolari uchun noinsof amaldorlarni jazolash yo'li bilan «Erkinlik» o'rnatgan.

---

<sup>2</sup>X.B.Bobojev, I.R.Ramazonov Inson huquqlari (o'quv dasturi).. T.: O'zbekiston, 1997-yil.

Garchi o`rta asrlarda erkinlik juda cheklangan bo`lsada, shunga qaramay Yevropada yakka hokim - monarx huquqini cheklash, uni vakillik monarxiyasi bilan bog`lashga qaratilgan harakatlar beiz ketmagan.

Inson huquqlarining shakllanishida Yevropaning tutgan o`rni albatta, salmoqlidir, bu qit'a davlatlarida qabul qilingan qator hujjatlar inson huquqlarining shakllanishiga benihoya ijobiy ta'sir ko`rsatgan, jumladan, Angliyada 1215-yili qabul qilingan «Erkinlikning buyuk hartiyasi» hokimiyat va amaldorlarning oddiy fuqarolar haq-huquqlarini suiste'mol qilishning oldini olishga qaratilgan qator qoidalarini o`zida mujassamlashtirgan.

1628-yilda qabul qilingan «Huquqlar to`g`risidagi petitsiya» qirolga mamlakat fuqarolarini amaldorlar, ma'muriyat o`zboshimchaliklaridan muhofaza etish majburiyatini yuklagan. Inson huquqlarini ta'minlash borasidagi yana bir burilish, bevosita 1678-yili qabul qilingan Habeas corpus act (Xabeas korpus akti) bilan bog`liq bo`lib, unda shaxs dahlsizligi, aybsizlik prezumptsiyasi kabi inson shaxsini himoya etishga doir qoidalar mustahkamlangan. 1689-yili qabul qilingan «Huquqlar to`g`risidagi bill» inson huquqlari masalasida ancha olg`a tashlangan qadam hisoblangan, chunki bu hujjat bevosita monarx huquqini ancha cheklab, parlamentning mavqeini mustahkamlagan. Ushbu tarixiy hujjatning qabul qilinishi bevosita so`z erkinligi, erkin parlament saylovlari hamda qirolga petitsiya bilan murojaat etish huquqi kabi erkinliklarning shakllanishi bilan uzviy bog`liqdir.<sup>3</sup>

Inson huquqlari masalasida Angliya xalqining bevosita kurashi va bu kurashlarning mantiqiy natijasi sifatidagi yuqorida zikr etilgan hujjatlarning qabul qilinishi o`sha davr uchun juda katta ahamiyatga molik bo`lgan. Angliyadagi inson huquqlari borasida olib borilgan harakatlarni, bizningcha, demokratiya va inson

---

<sup>3</sup>A.T.Saidov, B.L.Sultonov. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va inson huquqlari. T.: Adolat, 1998.

huquqlari taraqqiyotiga AQSh, Fransiya kabi davlatlar qo`shgan hissa bilangina taqqoslash mumkin. Aytish joizki, bu buyuk davlatlarda demokratiya va inson huquqlarining shakllanishi va rivojlanishiga hayotbaxsh etgan g`oyalar qadimgi yunon faylasuflarining siyosiy-huquqiy qarashlari, sharq allomalarining yuksak insonparvarlik g`oyalari, ma`rifatparvarlik davri vakillarining ilg`or fikrlari va tabiiy - huquqiy qarashlarda o`zining ifodasini topgan.

Inson huquqlari rivojiga Fransiyaning qo`shgan hissasi ham o`ziga xosdir. 1789-yili qabul qilingan «Inson va fuqarolarning huquqlari to`g`risidagi deklaratsiya» inson huquqlari masalasida qat'iy yondashuvni namoyon etib, «Ijtimoiy halokatlar va hukumatlarning aynib ketishining yagona sababi johillik, inson huquqlarini unutish yoki uni mensimaslikdir», -deb ta'kidlagan.

Inson huquqlari va asosiy erkinliklari tushunchasining shakllanishi uning ehtiyoji va imkoniyatlari bilan bog`liqdir. Inson huquqlarini tan olish va xalqaro huquq doirasida ularni himoya qilish vositalarini bunyod etish, aytish mumkinki, joriy yuz yillikning eng muhim ahloqiy yutug`idir. Xalqaro hamjamiyat inson huquqlari va erkinligining kelishib olingan ifodasini belgilashga yo`naltirilgan va shu bilan birga, hukumatlar zimmasiga qonunchilik asosida va amalda bu huquqlarni himoya qilish bo`yicha zarur choralar ko`rishini yuklaydi.

Hozirgi vaqtda jahon miqyosida inson huquqlari bo`yicha tasavvurga ega bo`lishlikning asosiy manbai Inson huquqlari bo`yicha umumjahon deklaratsiyasi hisoblanadi, u BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan. 1966-yilda BMT ikkita xalqaro hujjat qabul qiladi. Bular Umumjahon deklaratsiyasida e`lon qilingan huquqlarga asoslangan bo`lib, «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to`g`risidagi xalqaro pakt» hamda «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to`g`risidagi xalqaro pakt»dir. Jahonning uchdan ikki mamlakati ushbu paktlar qatnashchisidir. BMT Fuqarolik va siyosiy huquqlar to`g`risidagi xalqaro paktga Fakultativ protokol fuqarolarga hukumatlar inson huquqlarini buzgan taqdirda

ushbu paktga amal qilinishini nazorat etuvchi Inson huquqlari bo'yicha qo'mitaga murojaat qilish huquqini beradi. Lekin bunday imkoniyat, faqat davlatlar paktning ratifikatsiya qilgan, Protokolni imzolagan bo'lsagina mavjuddir. Bunday davlatlar uncha ko'p emas.<sup>4</sup>

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, ikkita pakt va Protokol birgalikda Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro bill nomi bilan mashhur. Yana inson huquqlariga taalluqli ko'plab umumjahon shartnomalari va shuningdek, Inson huquqlari Amerika konvensiyasi, Inson huquqlari va xalqlar huquqlari Afrika xartiyasi hamda Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasi kabi mintaqaviy konvensiyalar mavjud.

Inson huquqlarini turli usullar bo'yicha tasniflash mumkin. Eng ko'p tarqalgani quyidagilar: fuqaroviy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar. Bu tasnif Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro billda qabul qilingan. Fuqarolik va siyosiy huquqlarga yashashga bo'lgan huquq, qiynoqdan erkinlik huquqi, majburiy mehnatdan erkinlik huquqi, o'zboshimchalik bilan qamoqqa olinmaslik, odil sudlov, fikr erkinligi, vijdon erkinligi, din yoki e'tiqod, xususiy turmushga bo'lgan huquq, so'z va yig'ilishlarga bo'lgan, ijtimoiy hayotda qatnashishga bo'lgan huquqlar kiradi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar shunday huquqlarki, ularga amal qilish davlatdan, avvalo, fuqaro yoki fuqarolar guruhi manfaatlariga zid keluvchi xatti-harakatdan tiyilishni talab etadi. Biroq, bu huquqlarga rioya etish davlat zimmasiga muayyan mas'uliyatlarni yuklaydi: masalan, kam ta'minlanganlarni, agar ularga jinoyat sodir etganlikda jiddiy ayb qo'yilayotgan bo'lsa, sudda o'z huquqlarini himoya qilishlarini ta'minlashga imkon beruvchi yuridik yordam tizimini moliyalash bo'yicha, milliy ozchilikni ommaviy axborot vositalaridan foydalana olishlarini ta'minlash maqsadida davlatning mablag' ajratishi yana bir misoldir.

---

<sup>4</sup>A.M.Mamatqulov. Xalqaro huquq. T.: Adolat, 1997.

Quyidagi huquqlar iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga misol bo`la oladi: yetarlicha ovqatlana olish, sog`lom bo`lish, teng haq to`lanishi, ijtimoiy ta`minot, mehnat qilish, ish bilan ta`minlash, turar joyli bo`lish, ta`lim olish va madaniy hayotda ishtirok etish. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar shunday huquqlarki, bular o`z-o`zini ta`minlashga noqobil, masalan, ishning yo`qligi yoki nogironlik tufayli, fuqarolarga davlat yordamini talab etadi.

Bu huquqlardan ajralmas tamoyillar ham mavjud bo`lib, ular quyidagilardir: jinsi, irqi, dini yoki e`tiqodiga ko`ra kamsitilishdan holi bo`lish.

Xalqaro miqyosda tan olingan barcha inson huquqlari o`zaro bog`liq va bir-birini to`ldiradi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida shaxsning jamiyat oldidagi burchi haqida ham so`z boradi. Boshqalar bilan hamkorlikdagina fuqaro erkin bo`lishi va uning shaxsi to`la rivojlanishi mumkin, deb ta`kidlaydi. Shunga qaramay inson huquqlari tushunchasi, har bir insonning qadr-qimmati o`ziga yuksakdir degan xulosaga asoslanadi.

Xalqaro hamjamiyatning inson huquqlari va majburiyatlariga taalluqli o`z muhim xulosalari 1993-yil iyunda Venada bo`lib o`tgan Inson huquqlari bo`yicha umumjahon konferentsiyasida tasdiqlandi.

«Insonning barcha huquqlari universal tavsifga ega, ular ajralmas, o`zaro bog`liq va o`zaro aloqada. Xalqaro hamjamiyat inson huquqlariga holis va ob`ektiv munosabatda bo`lishi kerak. Garchi, tarixiylik, madaniy va diniy o`ziga xosliklari kabi omillar ahamiyatini e`tiborga olish lozim bo`lsada, davlatlarning vazifasi ularning siyosiy, iqtisodiy va madaniy qurilishidan qat`iy nazar, insonning barcha huquqlarini va asosiy erkinliklarini himoya qilishidir»<sup>5</sup>

---

<sup>5</sup>Vena konferentsiyasining yakuniy hujjati, 3-band.

Demokratiya va inson huquqlari o`rtasida jips aloqa mavjud degan fikr yangi emas. 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining bir bandida demokratik boshqaruv g`oyasi qo`llab-quvvatlanadi. Ideal sifatida quyidagilar e`lon qilinadi: «Xalq irodasi hukumat hokimiyati uchun asos bo`lishi kerak» (21 modda). Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to`g`risidagi xalqaro paktda davlatlar uchun har bir fuqaroga «davlat ishlarida ham bevosita, ham bilvosita, ya'ni erkin saylab qo`yiladigan vakillar orqali qatnashishlari; haqiqiy davriy saylovlarda qatnashish va saylanish...» huquqini berishligi, shuningdek, «o`z mamlakatida umumiy asoslarda davlat xizmatida tenglik» bo`yicha talablar qo`yiladi (25-modda).

Inson huquqlari borasidagi xalqaro me'yorlar dini, madaniyati, millatiga ko`ra, etnik yoki til jihatdan ozchilikni tashkil etuvchilar uchun muayyan kafolatlarni o`z ichiga oladi. Ular o`zlarining mavjud erkinliklari davlat tomonidan tan olinishi, shuningdek o`z tabiatlarini himoyalash va uni saqlash uchun sharoitlarga ega bo`lishi huquqiga egadirlar.

Yuqorida aytib o`tilganidek, inson huquqlariga doir, uning norma va prinsiplarini belgilovchi bir qator xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mazkur hujjatlarni shartli ravishda uch toifaga ajratish mumkin:

I. Tinchlik paytida inson huquqlariga doir asosiy me'yor va prinsiplarni belgilovchi hujjatlar:

1. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi.
2. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to`g`risidagi Pakt.
3. Fuqarolik huquqlari va siyosiy huquqlar to`g`risidagi Pakt va unga ilova qilingan Fakultativ protokol.

II. Urush paytida inson huquqlarini himoya qilish to`g`risidagi xalqaro Konvensiyalar:

1. 1899 va 1907-yillardagi «Urush qonunlari va udumlari to`g`risida»gi Gaaga Konvensiyalari.

2. 1949-yilgi «Urush qurbonlarini himoya qilish to`g`risida»gi to`rtta Jeneva Konvensiyasi.

III. Urush va tinchlik paytida ham bab-baravar inson huquqlariga tajovuz uchun javobgarlikni belgilovchi xalqaro hujjatlar:

1. Alohida ahamiyatga ega bo`lgan Nyurnberg Ustavi, Nyurnberg va Tokio harbiy tribunal hukmlari;

2. Genotsid jinoyatining oldini olish va jazo choralari to`g`risidagi Konvensiya;

3. Insoniyatga qarshi jinoyatlar va harbiy jinoyatlar uchun ijro muddati qo`llanmasligi to`g`risidagi Konvensiya;

4. Aparteid jinoyatining oldini olish va jazo choralari to`g`risidagi Konvensiya va boshqalar.

Xalqaro huquqning alohida tarmog`i sifatida inson huquqlari barcha norma va prinsiplari yuqorida keltirilgan uch toifadagi xalqaro hujjatlarda o`z aksini topgan va huquqiy mustahkamlangan.

Davlat va huquq vujudga kelgan davrdan to 1948-yil «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi» qabul qilingunga qadar jahon mamlakatlarida bir yo`nalishda «Inson huquqi»ning qonuniy asosini aniq bir shaklda yaratilish muammosi hal qilinmagan edi. Bu Deklaratsiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilinib, XX asrda juda bir muhim davr boshlanganini, inson huquqlarini poymol etib kelgan, shaxsning qadr - qimmatini yerga urgan, butun xalqlarni ezib, erkin taraqqiyot huquqlaridan mahrum etgan totalitar tuzumlar, diktatorlik rejimlarini yo`qotish uchun kurash boshlanganligini ko`rsatadi. Bu

davrga kelib, inson o'zining kimligini anglab, ongini, bilimini oshirishni va o'z erkinliklariga hurmat bilan qarashni talab qila boshlagan.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov 1992-yil mart oyida Xelsinki shahrida Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti hujjatlariga imzo chekdi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi ham BMT prinsiplarida bayon etilgan insonning asosiy huquqlariga rioya etish borasida o'z zimmasiga majburiyatlar oldi. O'zbekiston Respublikasi xalqaro ahamiyat kasb etgan hujjatlarni tan olish bilan birga nufuzli tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda. 1992-yil yanvar oyida EXHT ga a'zo bo'ldi. Bu tashkilot bilan birgalikda 1996-yil 11-13 sentyabr kunlari Toshkentda «Inson huquqlari bo'yicha milliy muassasalar» mavzusida xalqaro seminar-kengash bo'lib o'tdi. Hozirgi paytda O'zbekiston 1993-yilda inson huquqlari bo'yicha jahon konferentsiyasida tasdiqlangan tamoyillarga sodiq ekanligini namoyish etib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi ko'p tomonlama shartnomalarga qo'shilgan. Bular - Yevropa xavfsizlik va hamkorlik kengashi doirasidagi murosaga keltirish va hamkorlik bo'yicha Stokgolm Konvensiyasi, chet el mamlakatlari hakamlik qarorlarini e'tirof etish va ijro qilish to'g'risidagi Nyu-York Konvensiyasi, qit'a ichkarisida davlatning tranzit savdosi to'g'risidagi Konvensiya, xavfli chiqindilarni chegaralararo tashish va ularni yo'qotish ustidan nazorat qilish to'g'risidagi Bazel Konvensiyasi va boshqa shartnomalardir. O'zbekiston jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida xalqaro aloqalarda faol ishtirok etib, dunyoviy ahamiyat kasb etgan hujjatlarni imzolab, ulkan integratsiyalashuv jarayoniga kirib bormoqda.<sup>6</sup>

---

<sup>6</sup> X.N.Boboev, M.K.Ahmadshoeva. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: Inson va uning huquqlari eng oliy qadriyat. T.: 2002-yil.

## **1.2 Inson huquqlari bo'yicha qonunchilikning taraqqiyot bosqichlari**

Inson huquqlari – bu demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisidir. Inson huquqlari har bir davlatning demokratik taraqqiyoti darajasini ko'rsatuvchi muhim mezonidir. Shuning uchun ham inson huquqlari xalqaro huquqda va milliy huquqiy tizimda muhim o'rin tutadi.

Insoniyat o'z tarixiy rivojlanishi jarayonida inson huquqlariga oid qonunchilik – bu inson va fuqaro huquqlari hamda erkinliklari haqida qonunlar majmuidir. Bu qonunlar qatoriga inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlar va milliy qonunlar kiradi.

Inson huquqlari to'g'risidagi qonunchilik o'z taraqqiyotida uch katta bosqichni bosib o'tgan.

Birinchi bosqich – 1789-yilgi inson va fuqaro huquqlari fransuz deklaratsiyasidan boshlanib, to birinchi jahon urushiga qadar davom etgan. Bu bosqichda insonning shaxsiy va siyosiy huquqlari to'g'risidagi qonunchilik ustuvor ravishda rivojlangan. Bu davrda qabul qilingan qonunlarda alohida e'tibor quyidagimuhimlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan:

- shaxs erkinligi va fuqarolar tengligi;
- shaxs daxlsizligi;
- xususiy mulk huquqi;
- saylov huquqi turli senzlar bilan cheklangan bo'lsada.

Ikkinchi bosqichi – XX asrning birinchi yarmini o'z ichiga olgan. Bu bosqichda sotsial yo'nalish demokratiya ta'sirida insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlariga oid qonunchilik tez rivojlangan.

Mehnat qilish huquqi, dam olish huquqi, ijtimoiy yordam olish huquqi to'g'risidagi qonunlar alohida ahamiyat kasb etgan.

Fransiya va Shvetsiyadagi sotsial qonunchilik 1920-yilgi Veymar Konstitutsiyasi, Fransiya va Italiyaning 1946-yilgi Konstitutsiyalaribunga yaqqol misol bo'ladi.

Uchinchi bosqich – XX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri kelib, bu bosqichda inson huquqlarining «yangi avlodi» to‘g‘risidagi qonunchilik rivojlanadi. Bu huquqlar qatoriga:

- tinch yashash huquqi;
- sof va toza atrof-muhitga ega bo‘lish huquqi;
- axborot olish huquqi kabilar kiradi.<sup>7</sup>

Bu bosqichda inson huquqlari to‘g‘risida xalqaro qonunchilik tizimishakllandi.

Dunyodagi har bir davlatda ham inson huquqlariga oid muayyan qonunchilik tizimi shakllangan. Bu qonunchilik negizini, avvalambor, Konstitutsiyalar tashkil etadi. Barcha davlatlar Konstitutsiyalarida inson va fuqaro huquqlari va erkinliklariga maxsus bo‘lim, boblar ajratilgan. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari joriy qonunlarda o‘z aksini topgan.

Hozirgi kunda davlatlar o‘z Konstitutsiyalarida inson huquqlariga oid quyidagi muhim qoidalarni mustahkamlaganlar:

- inson huquqlari va erkinliklarini tan olish va himoya qilish bu davlat majburiyatlaridir;
- inson huquqlari va erkinliklari katalogi xalqaro-huquqiy andozalarga mos kelishi va bu sohada xalqaro huquqning ustuvorligi;
- inson huquqlari va erkinliklari unga tug‘ilgandan boshlab taalluqlidir, yangi tabiiy huquq g‘oyasini, nazariyasini e’tirof etilishi;
- hammaga va har kimga inson huquqlari va erkinliklarining teng va barobar taalluqliligi;
- fuqarolarning kafolatlangan sud himoyasi bilan ta’minlanishi;
  - inson huquqlari va erkinliklari davlat idoralari faoliyatining mazmunini tashkil etishligi;
- inson huquq va erkinliklarini amalga oshirish boshqa shaxslar huquqlarini buzmasligi zarurligi.

---

<sup>7</sup>A.M. Mamatqulov Xalqaro huquq. T.: Adolat, 1997.

O'zbekistonda Inson huquqlariga oid qonunchilik tizimi quyidagi besh tarkibiy qismdan iborat.

**Birinchisi:** fuqarolarning shaxsiy huquqlariga oid qonunlar-vijdon erkinligi, fuqarolarning murojaat qilish huquqi, sudga shikoyat qilish huquqi haqidagi qonunlar.

**Ikkinchisi:** fuqarolarning siyosiy huquqlariga oid qonunlar-jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, saylovlar to'g'risidagi, kasaba uyushmalari, ommaviy axborot vositalari haqidagi qonunlar.

**Uchinchisi:** fuqarolarning iqtisodiy huquqlariga oid qonunlar – mulk, tadbirkorlik, yer, ijara, xususiylashtirish, iste'molchining huquqlari to'g'risidagi qonunlar.

**To'rtinchisi:** madaniy huquqlarga oid qonunlar – fan, ta'lim, madaniyat, muzeylar, kutubxona, madaniy merosni himoya qilish to'g'risidagi qonunlar.

**Beshinchisi:** inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlar (ko'p tomonlama va ikki tomonlama) – milliy-huquqiy tizimning tarkibiy qismi sifatida.

Hozirgi zamonda dunyo mamlakatlaridagi demokratiya va inson huquqlariga oid qonunchilikning o'ziga xos xususiyatlariga:

- inson huquqlarini to'la amalga oshirishning huquqiy kafolatlarini ta'minlash;
- konstitutsiyaviy yustitsiya (sudlov)ni rivojlantirish;
- inson huquqlariga oid xalqaro va milliy institutlarni shakllantirish;
- yangi demokratik institutlarni, jumladan ombudsman institutini taraqqiy ettirish kiradi.

Inson huquqlarini muhofaza qilish bo'yicha yevropa va amerikalarda mexanizmlarining tahlili shundan dalolat beradiki, inson huquqlarini muhofaza qilishga doir mintaqaviy institutlar siyosiy-iqtisodiy tuzumlarining o'xshashligi, va

rivojlanish darajasining deyarli bir xilligi, umumiy huquqiy an'alarining o'xshashligida yuz berishi mumkin.

Bugungi kunda inson huquqlarini mintaqada darajasida muhofaza qilishda afrika mintaqasida vujudga kelgan mintaqaviy mexanizm e'tiborga sazovordir. 1981 yilda afrika mamlakati inson va xalqlar huquqlarining xartiyasini qabul qilib, mazkur hujjatda afrika qit'asidagi davlatlarning barcha manfaatlari hisobga olindi. Xartiyada o'z taqdirini o'zi hal qilish, mustamlakaga qarshi kurash, chet el hukmronligiga qarshi kurash masalasi asosiy o'rinegallaydi. Xartiyada xalqaro tinchlik va xavfsilikka huquqlari, o'z tabiiy resurslari ustidan suverenitet, sog'lom atrof-muhitga bo'lgan huquq kabilarni nazarda tutadi. Shuningdek xartiyada inson va xalqlar huquqlari bo'yicha komissiyaning ta'sis etilishi nazarda tutildi.

Komissiya tomonidan har yili sessiya o'tkaziladi. Xartiyaning 62-moddasiga binoan xartiyaga a'zo-davlatlar xartiyada nazarda tutilgan huquqlar bo'yicha qanday qonun ijodkorligi va amaliyoti bo'yicha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar ko'rganligi yuzasidan hisobot beradi. Komissiya vakolati umumiy tarzda berilgan bo'lib, komissiya muayyan bir qarorni qabul qilishga haqli emas. Amaliyotga afrika Komissiya u yoki bu huquqlar qay tarzda himoya qilish lozimligi bo'yicha tavsiyaviy qarorlarni qabul qilishi mumkin.

Xartiyada yevropa va amerika aro kovensiyalar talablaridan farqli o'laroq inson huquq va erkinliklarining ommaviy buzilishlari o'rtasida farq o'tkazadi. Agarda afrika Komissiyasi inson huquqlari buzilishlari ommaviy tarzda ro'y berayotganligi to'g'risidagi qarorga kelsa, hukumat va davlat boshliqlari assemblyasiga xabar beradi. Assemblyaning topshirig'iga binoan, komissiya ana shunday buzilishlarni har tomonlama tahlil qilib, o'z xulosa va tavsiyalari bilan Assemblyaga o'z xulosasini taqdim qiladi. Komissiya o'z faoliyatini amalga oshirishning dastlabki o'n yilida 340 ga yaqin inson huquqlari ommaviy tartibda buzilishlari to'g'risida ma'lumot olgan. Inson huquqlari ommaviy tartibda

buzilishlari to'g'risidagi axborotlarni pinhona ko'rib chiqadi va Assambleya qaror qabul qilgunga qadar maxfiylikni saqlab turadi. Inson huquq va erkinliklarining yakka buzilishlari komissiya tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

Demokratik huquqiy davlat insonni, uning erkinligi va haq-huquqlarini barcha ijtimoiy voq'eliklar markaziga qo'yadi. Zero, inson jaamiki dunyoviy ne'matlar ichida eng ulug'idir.

Jamiyat va davlat munosib hayot sharoitlari yaratib berishi, har kimning baxtli, emin-erkin yashashi uchun kafolat berishi lozim. Yuksakmadaniy va ma'rifiy fuqarolik jamiyatida inson, uning shaxsi, erki, sha'ni, qadr-qimmatini, huquq va erkinliklari muqaddas sanaladi. Inson dunyodagi ongli va irodali mavjudotdir. Shubois uni dunyoning tanho bilagi va kamari deyish joiz.

Inson huquqlari va erkinliklarining ta'minlanganlik darajasi mamlakatdagi siyosiy tuzumning harakterini, davlatning qanchalik demokratikligini ko'rsatadi. "Inson huquqi qonunda va amalda ta'minlay olmagan, buninguchun yetarli kafolatlar yaratib berolmagan jamiyat demokratik jamiyat emas"<sup>8</sup>.

Inson jamiyatning faol bo'lagidir. Shundan kelib chiqib, inson iqtisodiy munosabatlarning, siyosiy hamda ma'naviy hayotning bevosita ishtirokchisiga aylantirilmas ekan, ijtimoiy jarayonlarga uzviy jalb etilmas ekan, davlatning ravnaqi, jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti va kelajagi haqida gapirish mumkin emas.

Inson va jamiyat, inson va davlat o'rtasidagi munosabat, shaxsning huquqiy holati masalalari qadimdan falsafiy, ijtimoiy-siyosiy tafakkurning dolzarb mavzusi sifatida hisoblanib kelinadi.

Inson jamiyatda o'sib ulg'ayadi, shaxs sifatida shakllanadi va faoliyat ko'rsatadi. Jamiyat shaxslar (individlari)ning oddiy yig'indisi emas. Balki u kishilar

---

<sup>8</sup>I. A. Karimov. "Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati". T., "Sharq", 1953, 27-bet

o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar va munosabatlarning mujassam majmui, mushtarak mahsuli sifatida maydonga chiqadi. Jamiyat — bu insonlarning umumiy manfaatlar hamda ehtiyojlari birligi asosida, ularni qondirish maqsadidagi birikuv va kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, aloqadorlik, hamkorlik ifodasidir.

Shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik insonning jamiyat bilan aloqasi, avvalo oila, ta'lim-tarbiya va mehnat jamoalari kabi boshlang'ich bo'g'inlar vositasida amalga oshadi. Jamiyatni katta bir vujud (organizm) deb qaraladigan bo'lsa, shaxs ana shu vujudning muhim hujayrasidir. Shaxs muayyan jamoalar, ijtimoiy guruhlar tarkibida shakllanadi, ijtimoiy aloqalar sohibi sifatida jismoniy va ma'naviy kamolotga yetadi. Jamiyatning umumiy ijtimoiy ongi, ma'naviyati, madaniy darajasi, siyosiy-huquqiy saviyasi har bir shaxs tarbiyasi va fe'l-atvoriga singib boradi. Shu bilan birga inson o'zigagina xos xususiyat va fazilatlarga ham ega bo'ladi. Har bir inson tanho (individual) va u betakrordir.

Jamiyat shaxsning hayot faoliyati, erkin rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy shart-sharoitlar yig'indisi hisoblanadi. Jamiyat va shaxs aloqadorligi dialektikasi shundan iboratki, har bir shaxsning erkin rivoji, o'z iste'dodi, qobiliyatlarini namoyon eta olishi pirovardida butun jamiyatning rivoji, ravnaq topishi demakdir.

Shaxs va jamiyat o'zaro majburiyatlar orqali ham bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Masalan, jamiyat har bir shaxsga muayyan tarbiya berishi, uni ijtimoiy muhofaza etishi, shaxsning jamiyatdagi belgilangan vazifalarini ado etishi uchun shart-sharoit, hayotiy muhit yaratib berishi lozim. O'z navbatida, shaxs jamiyatga, uning umumiy manfaatlariga hurmat bajo keltirishi, o'z xatti-harakatlarini boshqa insonlarning manfaati bilan muvofiqlashtirishi, o'z jamoasi bilan hisoblashishi shart. "Inson, — deb ta'kidlaydi O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimov, — o'z

davlati, o'z xalqi oldidagi, uni katta umidlar bilan tarbiya etgan, voyaga yetkazgan jamiyat oldidagi burchini ado etishi kerak"<sup>9</sup>

Inson bilan davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda huquqiy asoslarning qaror toptirilishi jamiyatdemokratiyalashuvining jiddiy ko'rsatkichidir. Mazkur munosabatlarning asosiy prinsiplari va shakllari Konstitutsiya hamda qonunlarda o'z ifodasini topadi. Konstitutsiya inson huquqlari va erkinliklari ko'lamini mujassam tarzda mustahkamlab, ularni ta'minlashning eng maqbul yo'lidir.

Inson huquqlari faqat shaxs erkinligi (avtonomligi, suverenligi) real bo'lgan sharoitdagina to'laqonli bo'ladi. Inson jamiyatdagi o'zgarishlar, islohotlarning vositasi emas, balki maqsadi deb qaralishi lozim. Insonlarning erkinligi va tengligi g'oyalari dastlab burjua inqiloblari jarayonida ilgari surildi va ular insoniyatning "oltin xazinasiga" aylandi. Inson huquqlari aynan mana shu erkinlik g'oyalari zaminida qaror topdi.

Inson huquqdari va erkinliklari tizimi o'z yaralish ibtidosi va rivojlanish mantiqiga ega. Adabiyotlarda "inson huquqlarining uch avlod" bosqichi haqida ko'rsatib o'tiladi. Ular quyidagilardan iborat.

Inson huquqlarining "birinchi avlodi" — fuqarolik va siyosiy huquqlar hisoblanadi. Ular Yevropadagi burjua-demokratik inqiloblar, shuningdek Amerika Qo'shma Shtatlarining o'z mustaqilligi uchun olib borgan kurash davrida qo'lga kiritilgan Siyosiy huquqlar davlat hokimiyati o'zboshimchaligini jilovlashga yo'naltirilgan edi. Dasturiy talab sifatida davlat hokimiyatining inson erkinligi va mustaqilligiga daxl etmaslik majburiyati to'g'risidagi g'oya ilgari surilgan. Bu talab faqat hokimiyatlar taqsimlanishi va barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi tamoyili joriy etilgach, amalga oshdi.

---

<sup>9</sup>I. A. Karimov. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. T., "Sharq", 1993, 37-bet.

Inson huquqlarining "ikkinchi avlodi" bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'siri ostida shakllandi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida sanoati rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda iqtisodiyot sohasida sezilarli siljishlar ro'y berdi. Ishlab chiqarishning markazlashuvi va ishchilar (kasaba uyushmalari) harakati rolining oshishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar o'zining davlat-huquqiy ifodasini topdi. Jumladan, mehnat qilish huquqi, munosib hayot sharoitiga bo'lgan huquq, ilm olish huquqi va bir qator ijtimoiy kafolatlar: mehnat qobiliyatini to'la, qisman va vaqtincha yo'qotganda nafaqa olish, pensiya olish huquqi, ishsizlik nafaqasi va h.k.

Nihoyat, inson huquqlarining "uchinchi avlodi" — "ham-jihatlik huquqlari" deb atalib, ular davlatlardan ustun turuvchi va kollektiv harakterga ega. Umumiy e'tirof etilgan qoidaga ko'ra bu huquqlar: tinchlikka bo'lgan.

Insonning o'z erkinliklari, huquqlari va manfaatlari uchun davom etgan uzoq kurashi umuminsoniy ahamiyatdarajasiga ko'tarilgan quyidagi meyoriy-huquqiy hujjatlarda o'zining moddiy ifodasini topgan: "Erkinlikning buyuk xartiyasi" (1215 y.); "Huquq to'g'risidagi petitsiya" (1628 y.); "XaBeasCorpus AKT" (1679 y.); "Huquqlar to'g'risida bill" (1689 y.); "Amerika Virginiyasi huquqlari Deklaratsiyasi" (1776 y.); "Amerika Qo'shma Shtatlarining mustaqillik Deklaratsiyasi" (1776 y.); "Fransuz inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi" (1789 y.); "Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi" (1948 y.); "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro Pakt" (1996 y) va boshqalar. Mazkur hujjatlar orqali inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi yuridik qoidalar shakllanishining butun yo'lini va mantiqini anglab yetish mumkin. Bular da aks ettirilgan inson huquqlariga oid qoidalar mag'zini birgina g'oya — ya'ni, insonning tug'ilishidan boshlab mavjud bo'ladigan, ajralmas, tabiiy huquqlari to'g'risidagi tasavvurlar tashkil etadi. Bu huquqlar siyosiy hokimiyatlar tomonidan tan olinishi va qonunlar bilan kafolatlanishi lozim.<sup>10</sup>

---

<sup>10</sup> O.F.Xusanov, O.R.Karimova, X.S.Tuychieva, Z.PKarimov. Inson huquqlari (maxsus kurs). T., 1997.

Har qanday huquq, shu jumladan inson huquqlari insonning biologik mohiyati bilan emas, balki uning ijtimoiy mohiyati, muayyan jamiyat a'zosi ekanligidan kelib chiqadi. Fransuz burjua inqilobi (1789 y.) dunyoga bergan "Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi" tabiiy huquq maktabi g'oyalaridan kelib chiqib, inson huquqlariga baho bergan. Deklaratsiya tamoyillariga muvofiq insonga ikki jihatdan izoh beriladi: bir tomondan, alohida olingan inson, odam tarzida, ikkinchi tomondan — fuqaro, ya'ni biron bir jamiyatning, siyosiy-ijtimoiy guruhning a'zosi sifatida tavsiflanadi. Shunga binoan, Deklaratsiya "inson huquqlari" va "fuqaroning huquqlari"ni aniq-tiniq belgilab bergan. Inson huquqlari qatoriga tug'ilishi bilan mavjud bo'ladigan, olamning insoniyat jamiyatiga qo'shilgunga qadar holatidagi huquqlari yig'indisi kiradi. Fuqaroning huquqlari deganda esa, inson siyosiy jamiyatga qo'shilgandan keyin ega bo'ladigan huquqlari majmui tushuniladi.

Dunyo davlatlarida inson huquqlariga oid qonunchilik tizimi quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Fuqarolarning shaxsiy huquqlariga oid qonunlar.
2. Fuqarolarning siyosiy huquqlariga oid qonunlar.
3. Fuqarolarning iqtisodiy huquqlariga oid qonunlar.
4. Madaniy huquqlarga oid qonunlar.
5. Inson huquqlariga oid xalqaro huquqiy hujjatlar.

**Inson Huquqlari** barcha insonlarning umumbashariy va ajralmas huquqlari bo'lib, qaysidir davlatga, millatga, fuqarolikka yoki dinga tegishli bo'lmasin hamma uchun bir xildir. Bu huquqlar Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasiga asoslangan. Inson Huquqlari xalqaro ko'lamda amal qilinib, xalqaro qonunlar, dunyoviy va diniy muassasalar, hukumatlar siyosati va nodavlat tashkilotlari tomonidan dunyo siyosatiga juda ham katta ta'sir ko'rsatadigan doktrinadir. Inson Huquqlari bu insonlarga berilgan imtiyoz bo'lib u dunyoning ko'pchilik taraqqiy etgan

mamlakatlarida qonunlar, konstitutsiyaviy qadriyatlar normalari yoki xalqaro konvensiyalar orqali tan olingan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta'kidlash joizki inson huquqlari umum huquq tizimida insonning o'zi singari juda uzoq va qiyin yo'lni bosib o'tdi va kelmoqda. Bu yo'lda u juda katta to'sqinliklarga va qiyinchiliklarga duch keldi. Lekin uning yengilmas va sinmas irodasi tufayli u bugunga qadar eson omon yetib keldi va endilikda u bugungi dunyoning eng dolzarb va muhim masalalaridan biriga aylandi. Inson qadri, sha'ni, or-nomusi, huquq va erkinliklari daxlsiz deb e'lon qilindi.

Biroq bu bilan biz belgilangan maqsadga erishib bo'ldik deb ayta olmaymiz , chunki hali bu borada qilinishi kerak bo'lgan juda ko'p ham nazariy ham amaliy ishlarimiz bor. Xalqaro huquq va milliy qonunchilikimizni bu boradagi hamkorligi o'ylaymanki juda ham samarali bo'lishini ta'minlaydi va huquqiy poydevor vazifasini bevosita o'taydi.

### **1.3 Xalqaro hujjatlarni implementatsiya qilish tavsifi**

Xalqaro hujjatlar haqida gap ketganda biz avvalo bir qancha tayanch iboralarni bilib olishimiz talab etiladi.

Demokratiya- inson huquqlarini amalga oshirishning muhim omilidir, demokratiya insonlarga davlat siyosiy hayotida, jamiyat ishlarini boshqarishda faol ishtirok etish huquqini beradi.

Birinchi Pakt (bitim) - iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Pakt muqaddima, V qism, 31-moddadan tashkil topgan. Paktda mehnat qilish va erkin kasb tanlash huquqi; mehnat uchun adolatli ish haqi olish; kasaba uyushmalari tuzish va ularga kirish huquqi, ijtimoiy ta'minot, yetarli turmush darajasi huquqi, ochlikdan xoli bo'lish, sog'liqni saqlash va bilim olish huquqlari e'tirof etilgan.

Ikkinchi Pakt (bitim)- fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Paktdir. Paktda e'tirof etilgan inson huquqlarining keng qamrovli tizimi tarkibini quyidagi huquqlar tashkil etadi: yashash huquqi, erkinlik va shaxsning daxlsizlik huquqi, o'zboshimchalik bilan qamalishdan muhofaza qilinishi huquqi; adolatli sudlov, fikr, vijdon, din erkinligi, o'z fikrida sobit bo'lish va fikrini erkin ifoda etish huquqi, oila qurish huquqi, ko'chish erkinligi, muhojirlik erkinligi, osoyishta yig'ilishlar o'tkazish huquqi, kasaba uyushmalar tuzish va manfaatlarini himoya qilish maqsadida unga kirish huquqi va boshqalar.

Inson huquqlari – bu insoniyat tarixiy taraqqiyotining umumiy yutug'idir. Bu sohaning shakllanishi va rivojlanishida ko'plab davlatlarda qabul qilingan milliy hujjatlar asosiy rol o'ynaydi. Bular – 1689 yili Angliyadagi, 1789-1791 yillarda Amerikada “Inson huquqlari to'g'risidagi Bill”, 1789 yili Fransiyadagi “Inson va fuqarolarning huquqlari to'g'risida”gi hujjatlardir.

Inson huquqlarini himoya qilish kishilik jamiyati tarixida muhim muammolardan biri bo'lgan. Chunki xalqlarning, millatlarning erkin taraqqiyoti, inson huquqlari totalitar tuzumning mavjudligi tufayli poymol etiladi. Bu tuzum XX asrda inqirozga yuz tutib, millatlarning erkin taraqqiyot yo'lini tanlash huquqini qo'lga kiritishlariga imkon yaratdi.

Insoniyat azob-uqubat, kulfatlar keltiradigan urush ofatlaridan kelgusi avlodlarni xalos etish, inson huquqlarini xalqaro miqyosda hurmat qilinishini ta'minlash BMT faoliyatining asosiy maqsadiga aylandi. Bu maqsadlar BMTning inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro ahamiyati ega hujjatlarida o'z ifodasini topgan.

Implementatsiya (xalqaro huquq) (ing. implementation- “amaliy faoliyat”) – Xalqaro huquqning muayyan davlat ichidagi amaliy faoliyati, xalqaro huquqni milliy qonunchilik tizimiga kirib kelish jarayonining umumiy tavsifi. Implementatsiya jarayoniga qo'yilgan eng katta talab – bu boradagi chuqur izlanishlar va xalqaro huquqning ustuvorligidir.

Xalqaro huquq normalarining milliy huquqqa kirib kelish jarayoni xalqaro huquq normalarining milliy huquq normalariga aylanishini ko'zda tutgan holda, odatda, transformatsiya deb ataladi. Bunda xalqaro-huquqiy norma o'z mazmunini saqlab qolsada, uning shakli ba'zan o'zgaradi. Shu bois, bu o'rinda implementatsiya, ya'ni xalqaro huquq normalarining milliy huquq normalariga kirib borishi haqida ham so'z boradi.

Transformatsiya quyidagicha bo'lishi mumkin:

***birinchidan***, umumiy — bunda davlatning o'zi qabul qilgan xalqarohuquqiy normalarning barchasi yoki ayrim turlari mamlakat huquqining uzviy qismi ekanini belgilaydi;

**ikkinchidan**, individual — bunda alohida xalqaro-huquqiy norma yoki normalar guruhi maxsus hujjat orqali mamlakat huquqiga kiritiladi;

**uchinchidan**, bevosita — bunda xalqaro shartnoma qoidasi, shartnoma qabul qilingani to'g'risidagi aktning to'g'ridan to'g'ri ta'sir kuchi natijasi o'laroq, milliy huquqdan ustunlik qiluvchi qoida asosida yuzaga keladi. Ayni chog'da, xalqaro huquq normasi mamlakat milliy huquqining uzviy qismi sifatida qo'llanishi uchun u o'z-o'zidan ijro etiladigan, ya'ni bevosita qo'llash uchun yaroqli bo'lishi zarur;

**to'rtinchidan**, bilvosita — bunda xalqaro shartnoma asosida shartnoma mazmunini o'zida aks ettiruvchi milliy normativ hujjat chiqariladi.

Implementatsiyaning alohida turi — havola etish bo'lib, u qonunda muayyan qoidalar tegishli xalqaro shartnomaga muvofiq ravishda qo'llanishi yoki tegishli vaziyatda muayyan xalqaro shartnomaning qo'llanishi zarurligi qayd etilgan holatlarni nazarda tutadi.

Milliy huquqqa kirib kelar ekan, xalqaro huquq normalari unda alohida mavqega ega bo'ladi. Mamlakat huquqiy tizimining uzviy qismi sifatida ular o'z maqsad va prinsiplariga mos ravishda, shuningdek, unda belgilangan protsessual tartibga muvofiq tarzda qo'llanadi.

Kelgusida bunday xalqaro-huquqiy norma o'z tarkibidan olingan xalqaro shartnoma taqdiridan mustaqil holda mavjud bo'ladi. U xalqaro shartnoma to'xtatilganidan keyin ham amal qilib qolaverishi mumkin.

Transformatsiya davlatda maxsus qonun chiqarish yoki ushbu davlat hududida xalqaro shartnoma kuchda ekanini va barcha shaxslar uning talablariga rioya etishga majbur ekanini qonunlar asosida e'lon qilish yo'li bilan ro'yobga chiqarilishi mumkin. Shunday nuqtayi nazar ma'lumki, unga ko'ra davlatning xalqaro shartnomani ratifikatsiya qilish yoki ma'qullash fakti uning milliy qonunchiligi ajralmas bo'lagiga aylanishi bilan tengdir. Xalqaro huquq nazariyasida ushbu yondashuv (retsepsiya) ko'pincha davlatning ichki huquqiy hujjatlarida xalqaro huquqiy hujjat ifodasining aniq bayon etilishini belgilash maqsadida

qo'llanadi. Ba'zan retsepsiya deganda, davlatning milliy qonunchilik yordamida o'z xalqaro majburiyatlarini bajarishini ta'min etishi tushuniladi.

Xalqaro huquq milliy qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshirishga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Milliy qonun chiqaruvchi hokimiyat xalqaro huquqqa zid keladigan qonunlar chiqara olmaydi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat davlatning zimmasidagi xalqaro majburiyatlar bilan cheklab qo'yilgandir u xalqaro huquq normalarini ro'yobga chiqarish uchun zarur qonunlar chiqarishga majbur.

Xalqaro huquqning milliy, shu jumladan konstitutsiyaviy huquqqa ta'sirining kuchayib borishi xalqaro majburiyatlar mamlakat konstitutsiyasiga muvofiqligini nazorat qilishning yangi shakllari yaratilishiga sabab bo'ladi. Bunda tobora keng urf bo'lib borayotgan konstitutsiyaviy sudlar muhim o'rin tutib, ularning asosiy vazifasi qonun hujjatlarining konstitutsiyaga nechog'li mos ekanini kuzatib borishdan iborat.

Xalqaro shartnomalarning konstitutsiyaga mosligini nazorat qilish ular uchun yangi bir vazifadir. Sudlar ushbu masalaga g'oyat ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Masalan, umumiy prinsiplar xalqaro huquq bilan demokratik davlatlar milliy huquqini bir-biriga yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, milliy sudlarning huquqning umumiy prinsiplarini qo'llash borasidagi dastlabki tajribasini ijobiy baholamaslik mumkin emas. Tsivilizatsiyalashgan davlat degan huquqiy tushuncha izchil qaror topmoqda. O'z huquqiy tizimida xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini, shuningdek, imperativ normalar sifatida inson huquqini mustahkamlagan davlat tsivilizatsiyalashgan degan nomga munosibdir<sup>11</sup>.

Endi esa nazariyadan amaliyotga o'tadigan bo'lsak quyidagilarni aytishimiz mumkin:

- Xorijiy rasmiy hujjatlarni legallashtirishning xalqaro huquqiy asoslari mamlakatimizda 2011 yil 4 aprelda "Xorijiy rasmiy hujjatlarni legallashtirish talabini bekor qiluvchi Konvensiyaga (Gaaga, 1961 yil 5 oktabr) O'zbekiston

---

<sup>11</sup> A.X. SAIDOV .HOZIRGI ZAMON XALQARO HUQUQI NAZARIYASI ASOSLARI. 44 bet T .,2007.

Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi mamlakatimiz fuqarolari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari uchun muayyan yengilliklar yaratadi. Ushbu qonun O‘zbekiston Respublikasida apostil (Konvensiyaga a’zo davlatlar ishtirokchilarining rasmiy hujjatlariga qo‘yiladigan maxsus muhr) qo‘yilgan rasmiy hujjatlarni ko‘rsatish orqali uning yuridik kuchini tan olish tartibini soddalashtirishga xizmat qiladi. Ta’kidlash joizki, apostil qo‘yilgan rasmiy hujjatlar hech qanday qo‘shimcha legallashtirishni talab qilmaydi va Gaaga konvensiyasi ishtirokchi davlatlari tomonidan tan olinadi. Yuzga yaqin davlat mazkur Konvensiya ishtirokchisi ekanini inobatga olsak, ular o‘rtasida rasmiy hujjatlarning yuridik kuchi tan olinishi oddiy apostil qo‘yish orqali amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda kuchga kirgan mazkur Konvensiyaning asosiy maqsadi davlatlar o‘rtasida rasmiy hujjatlarning yuridik kuchini tan olishda ortiqcha rasmiyatchiliklarga barham berishdan iboratdir. Ushbu Konvensiya ahdlashuvchi davlat hududida amalga oshirilgan va boshqa ahdlashuvchi davlat hududiga taqdim etilishi kerak bo‘lgan rasmiy hujjatlarga nisbatan amal qiladi. Jumladan, Konvensiyaning 1-moddasiga asosan quyidagilar rasmiy hujjatlar sifatida belgilangan:

a) davlat yurisdiksiyasiga kiruvchi organ yoki mansabdor shaxs, shu bilan birga prokuratura, sud kotibi yoki sud ijrochisi tomonidan chiqarilgan hujjatlar;

b) ma’muriy hujjatlar;

c) notarial hujjatlar;

d) ro‘yxatga olinganlik to‘g‘risidagi rasmiy belgilar, aniq sanalarni tasdiqlovchi vizalar, notarial tasdiqlanmagan hujjatlardagi imzolar. Shu bilan birga, mazkur Konvensiya diplomatik va konsullik agentlari tomonidan chiqarilgan hujjatlarga hamda tijorat yoki bojxona operatsiyalari bilan bevosita bog‘liq ma’muriy hujjatlarga tatbiq qilinmasligiga alohida e’tiborni qaratish zarur. Bundan tashqari, Konvensiyaning mohiyatidan kelib chiqib aytish mumkinki, agar hujjat

ahdlashuvchi davlat yurisdiksiyasiga kirmaydigan organlar tomonidan chiqarilgan bo'lsa, ushbu Konvensiya ularga nisbatan tatbiq qilinmaydi. Mazkur Konvensiyaga asosan “xorijiy rasmiy hujjatlarni legallashtirish”, deganda hujjat taqdim etilishi kerak bo'lgan davlat hududida, hujjatni imzolagan shaxs imzosini hamda hujjatni tasdiqlagan muhr va shtampning haqiqiylikini tasdiqlash maqsadida mamlakat diplomatik yoki konsullik agentlari tomonidan foydalaniladigan rasmiy protseduralar tushuniladi.

Qayd etish joizki, ushbu Konvensiya mamlakatimizda ratifikatsiya qilinmasdan ilgari, mavjud tartib-taomillarni tahlil qilish orqali xorijiy rasmiy hujjatlarni legallashtirish bir qator bosqichlarda amalga oshiriladi:

- birinchidan, yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan hujjat notarial tasdiqlanishi;
- ikkinchidan, notarial tasdiqlangan hujjat Adliya vazirligiga notariusning imzosi haqiqiylikini tasdiqlash uchun taqdim qilinishi;
- uchinchidan, Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan hujjat Tashqi ishlar vazirligiga Adliya vazirligi mas'ul xodimining imzosini tasdiqlash uchun taqdim qilinishi;
- to'rtinchidan, Tashqi ishlar vazirligi tomonidan legallashtirilgan hujjat xorijiy davlatning O'zbekiston Respublikasidagi diplomatik vakolatxonasiga, Tashqi ishlar vazirligi Konsullik boshqarmasi xodimining imzosini tasdiqlash uchun taqdim etilishi talab etiladi. Ushbu qonunning qabul qilinishi natijasida xorijiy hujjatni legallashtirish jarayoni soddalashtirildi, ya'ni yuridik yoki jismoniy shaxs hujjatni faqat apostil qo'yish uchun vakolatli organga taqdim etishi lozim hamda apostil qo'yilgan hujjatning yuridik kuchi yuzga yaqin ahdlashuvchi davlatlar tomonidan tan olinadi. Konvensiyaning 3-moddasiga muvofiq apostil hujjatning o'ziga yoki hujjatga tikilgan alohida varaqqa qo'yiladi, unda apostil tomonlari 9 santimetrdan kam bo'lmagan to'rtburchak shakliga ega bo'lib, konvensiyaga ilova qilingan namunaga muvofiq bo'lishi lozim. Shuningdek, ushbu apostil uni taqdim etuvchi davlatning rasmiy tilida bo'lishi mumkin. Faqat sarlavha “Apostille (Convention de

la Haye du 5 octobre 1961)» fransuz tilida berilishi lozim. Amaliyotda apostil odatda konvensiyaning rasmiy tillaridan birida va apostil qo‘ygan davlatning rasmiy tilida amalga oshiriladi. Shuningdek, apostilda taqdim qiluvchi davlat nomi, tasdiqlangan hujjatni imzolagan shaxsning familiyasi, mansabi, agar apostil qo‘yilgan hujjat muhr yoki shtamp bilan tasdiqlangan bo‘lsa, ushbu muhr yoki shtamp bilan tasdiqlagan muassasaning nomi, apostil qo‘yilgan shaharning nomi, sanasi, uni qo‘ygan organning nomi, apostilning raqami, apostil qo‘ygan organning muhr va shtampi, uni qo‘ygan mansabdor shaxsning imzosi aks ettirilishi lozim. Bundan tashqari, mazkur Konvensiyaning 6-moddasiga muvofiq, ishtirokchi davlatlar belgilangan vazifalardan kelib chiqib, apostil qo‘yish vakolatiga ega bo‘lgan organni tayinlashi lozim. Chunonchi, Koreya Respublikasida vakolatli organlar etib Tashqi ishlar va savdo vazirligi, Adliya vazirligi va Milliy sud ma‘muriyati, Fransiya Respublikasida hududlardagi apellatsiya sudlari, Yaponiyada esa Tashqi ishlar vazirligi belgilangan. “Xorijiy rasmiy hujjatlarni legallashtirish talabini bekor qiluvchi Konvensiyaga (Gaaga, 1961 yil 5 oktabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi xorijiy rasmiy hujjatlarni legallashtirishda tartib-taomillarni soddalashtirishni ta‘minlash, shuningdek, davlatlar o‘rtasidagi mazkur sohaga oid munosabatlarning yagona tartibga solinishida muhim ahamiyat kasb etadi.

-Oliy Majlis Senatida 29 avgust 2015 yilda Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o‘n beshinchi yalpi majlisi bo‘lib o‘tgan edi. Kengash majlisida ta‘kidlanganidek, Senatning bo‘lajak yalpi majlisida yigirmaga yaqin masala, shu jumladan, amnistiya masalasi, «Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida»gi, «Muzeylar to‘g‘risida»gi, «Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimcha kiritish haqida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari hamda xalqaro huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilish bilan bog‘liq qator masalalar ko‘rib chiqilishi mo‘ljallangan.

Yalpi majlisda ko'rib chiqiladigan qonunlar orasida O'zbekiston Respublikasining ayrim xalqaro huquqiy hujjatlarga qo'shilishiga oid qonunlar alohida o'rin tutadi. «Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar o'rtasida 2002 yil 7 iyunda Sankt-Peterburg shahrida (Rossiya Federatsiyasi) imzolangan Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi to'g'risidagi Bitimga o'zgartishlar kiritish haqidagi Bayonnomani (Bishkek, 2007 yil 16 avgust) ratifikatsiya qilish to'g'risida»gi hamda «O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Birlashgan Arab Amirliklari Hukumati o'rtasida uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va jinoyatchilikning boshqa xavfli turlariga qarshi kurash sohasida hamkorlik to'g'risidagi Bitimni (Abu Dabi, 2008 yil 17 mart) ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining ma'qullanishi hamda mazkur xalqaro hujjatlarga qo'shilish mamlakatimizning mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro terrorizmga, transmilliy jinoyatchilikka, giyohvandlik vositalarining qonunga xilof muomalotiga, Markaziy Osiyo mintaqasida va uning sarhadlaridan tashqarida tinchlik hamda barqarorlikka bo'lgan boshqa tahdidlarga qarshi kurash sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash, Vatanimiz fuqarolarining osoyishta turmush va bunyodkorona mehnat qilishga bo'lgan asosiy huquqi ishonchli himoya etilishini ta'minlash tarafdori ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi. Majlislarda senatorlarning 2008 yilning o'tgan davridagi ish yakunlari ham ko'rib chiqildi va Senat qo'mitalari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar qabul qilindi. Muhokama etilgan barcha masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.<sup>12</sup>

-22 yanvar 2014 yilda esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida Birlashgan Millatlar Tashkilotining o'zbek tilida nashr etilgan "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konsensiyasining taqdimoti bo'lib o'tdi.

---

<sup>12</sup>[www.kun.uz](http://www.kun.uz)

Tadbirda e'tirof etilganidek, bugungi kunda O'zbekiston bilan BMT o'rtasida mustahkam hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan. Bugungi tadqiqot ham tomonlar o'rtasidagi amaliy hamkorlikning yorqin misolidir.

O'zbekiston mazkur tashkilotga a'zo bo'lgandan buyon inson huquqlariga oid 70 dan ortiq xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qildi. Shu jumladan, BMTning 10 ta muhim majburiy konvensiyasiga qo'shilgan. Mamlakatimiz ularni bajarish bo'yicha 30 dan ortiq ma'ruzalarni tashkilotning shartnomaviy organlariga taqdim etdi. Asosiysi, mazkur hujjatlar shunchaki ratifikatsiya qilinmasdan, balki Parlament tomonidan ularning ijrosi nazoratga olingan, – deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasi raisi Akmal Saidov.

2009 yilda O'zbekiston hukumati tomonidan mazkur konvensiyaga imzo chekilgan bo'lsada, u Parlamentda ratifikatsiya qilinmagan. Ushbu taqdimot Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarini xalqaro hujjat bilan tanishtirish maqsadida tashkil etildi. Xalqaro konvensiyada nogironlarning mustaqil hayot kechirishlari va boshqalar bilan teng ravishda ijtimoiy muhitdan, transport, aloqa, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, shahar va qishloq joylarida aholi uchun mo'ljallangan barcha ob'ektlar hamda xizmatlardan teng foydalanish huquqlari ilgari surilgan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining protseduralariga muvofiq, xalqaro hujjatlar muhokamasi va qabul qilinishi uzoq davom etadigan jarayon. Biroq, mazkur hujjat muhokamasi tez sur'atlarda amalga oshirilgan hamda uning qabul qilinishidan so'ng bir necha kun o'tib ko'plab davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan. Hozirda mazkur Tashkilotga a'zo 193 ta davlatning 130 tasi ushbu xalqaro konvensiyaga qo'shilgan. Unda insonlar uchun yangi huquqlar belgilanmagan, balki nogironlar huquqlari kuchaytirilgan. Ushbu xalqaro hujjatda imkoniyati cheklangan insonlar

uchun minimal standartlar va talablar nazarda tutilgan, – deydi Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekistondagi doimiy vakili Stefan Prisner.<sup>13</sup>

Bugungi kunda dunyo bo'ylab 1 mlrd.ga yaqin nogiron mavjud va eng katta ozchilikni aynan nogironlar tashkil etadi. O'zbekistonda ularning huquqlarini himoya qilish, nogironlarning turmush sharoitini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada 20 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingan. Taqdimot marosimida ta'kidlanishicha, ushbu xalqaro hujjatning O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilinishi nogironlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini yanada oshirib, ular o'z salohiyatini amalga oshirishlari uchun sharoit yaratadi.

---

<sup>13</sup>[www.gov.uz](http://www.gov.uz)

## **II bob. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarning implementatsiyasi**

### **2.1.O'zbekiston Konstitutsiyasida Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi qadriyatlarining aks ettirilishi.**

**Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi** 1948-yil, 10-dekabrda **Birlashgan Millatlar Tashkiloti** Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan va e'lon qilingan.

**Birlashgan millatlar tashkilotining inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi** - BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan deklaratsiya. U muqaddima va 30 moddadan iborat bo'lib, uni qabul qilishdan maqsad har bir inson va davlat mazkur Deklaratsiyani nazarda tutgan holda ma'rifat va ta'lim orqali shu huquq va erkinliklar hurmat qilinishiga ko'maklashishi lozim. Deklaratsiya har bir insonning tabiiy va ajralmas huquq va erkinliklari e'lon etilgan asosiy xalqaro hujjatdir. Shu tariqa xalqaro munosabatlar tarixida birinchi marta insonning hamma rioya etishi zarur bo'lgan asosiy huquqlari va erkinliklari doirasi belgilab berilgan. Deklaratsiyada "insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmatni, ularning teng va ajralmas huquqlarini tan olish — erkinlik, adolat va yalpi tinchlik negizi" ekanligi e'lon qilingan. Unga ko'ra, umum hurmat va rioya qilishi shart bo'lgan inson huquqlari doirasi shaxsiy, siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy huquqlardan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining huquqiy poydevori bo'lmish Konstitutsiya qabul qilinganiga bu yil yigirma to'rt yil to'ladi. Yangi demokratik huquqiy davlatni shakllantirish hamda fuqarolik jamiyatini qaror toptirish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimiz Bosh Qomusimizda kafolatlangan qonunlarimizning amaldagi namoyishidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson va davlatning huquqiy holatini belgilashda inson huquqlari ustuvorligi, davlat bilan fuqaroning o'zaro siyosiy-

huquqiy mas'ulligi prinsiplariga asoslanuvchi tamomila yangi konsepsiyaga tayangan bo'lib, unda ilk bor inson huquqlari kategoriyasi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo'yilgan.

Inson huquqlarining yangi konsepsiyasi konstitutsiyaviy qonunchiligimizda o'z yuridik tasdig'ini topgan bo'lib, ular O'zbekiston fuqarolarining konstitutsiyaviy huquqiy maqomi sifatida muayyan prinsiplarga tayanadi. Ushbu prinsiplar universal xususiyatga ega bo'lib, ular qatoriga quyidagilar kiradi.

Birinchiidan, inson va fuqaroning huquq, erkinlik va majburiyatlari tenglik hamda teng huquqlilik asosida amalga oshiriladi. Bu prinsip Konstitutsiyada uch jihatdan ta'riflangan: barcha fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi; fuqarolar huquq va erkinliklarining tengligi; erkaklar va xotin-qizlarning teng huquqliligi.

Ikkinchiidan, Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarning kafolatlanganligi prinsipi. Jumladan, Asosiy Qonunimizning 2-moddasiga asosan Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar deyilgan.

Shuningdek, Konstitutsiyada demokratik huquq va erkinliklar davlat tomonidan muhofaza qilinishi alohida e'tirof etilgan. 13-moddaning 2-qismida demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinishi, 19-moddada fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizligi, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emasligi qonuniy mustahkamlangan. Shuningdek, Konstitutsiyamizning ikkinchi bo'limi bevosita inson va fuqarolarning asosiy huquqlariga bag'ishlanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.<sup>14</sup>

---

<sup>14</sup>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi II bo'lim "INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIKLARI VA BURCHLARI" T., «O'zbekiston». 2014

Uchinchidan, muhim prinsiplardan yana biri, fuqarolarning huquq va erkinliklari cheklanishiga yo‘l qo‘yilmasligi. Mazkur prinsip insonga tug‘ilishidan tabiatan tegishli bo‘lgan uning ajralmas huquq va erkinliklari davlat tomonidan tan olinishidan kelib chiqadi. «Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta‘minlaydi» (43-modda). Fuqarolarning huquq va erkinliklari faqat jamiyat hamda davlat xavfsizligi nuqtai nazaridan, aholining sihat-salomatligi, xalqning ahloqi va ma‘naviyati, ijtimoiy tartibot manfaatlari nuqtai nazaridagina qonunda belgilangan darajada cheklanishi mumkin. Ammo, fuqarolarning yashash huquqi, shaxsiy qadr-qimmatini muhofaza etish huquqi, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi, vijdon erkinligi va e‘tiqod erkinligi huquqi kabilar cheklanishi mumkin emas.

To‘rtinchidan, fuqarolarga beriladigan huquq va majburiyatlar birligi prinsipi. Shaxs nafaqat muayyan huquq va erkinliklarga, balki majburiyatlarga ham ega hisoblanadi. Turli-tuman huquqiy munosabatlar ishtirokchisi bo‘lmish fuqaro faqat huquq va imtiyozlardan foydalanib qolmasdan, jamiyat, davlat va boshqa fuqarolar oldida muayyan majburiyatlarni ham o‘taydi.

Konstitutsiyaning 20-moddasiga ko‘ra, fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.<sup>15</sup>

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, Konstitutsiyaning 13-moddasida ko‘rsatib o‘tilganday «O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi». Bosh Qomusimizning 19-moddasida esa, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emasligi ta‘kidlangan.

---

<sup>15</sup>O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 9 bet T., «O‘zbekiston». 2014

Mamlakatimizda «Xabeas korpus» institutining joriy etilishi, 2008 yil 1 yanvardan boshlab ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqining sudlarga berilganligi Konstitutsiyada nazarda tutilgan normalarga to'liq mos keladi. Amaldagi qonunlarga ko'ra, bu jarayon tomonlarning o'zaro tortishuvi ta'minlangan holda amalga oshiriladi. Ya'ni, sudda gumon qilinayotgan shaxsga o'zini himoya qilishga barcha sharoitlar yaratildi. Konstitutsiyamizning 80-moddasi 10-bandiga hamda 93-moddasi 23-bandiga asosan, an'anaviy tarzda qabul qilinayotgan amnistiya aktlari ham mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan demokratik islohotlar amalga oshirilayotganligining yorqin dalilidir.

Konstitutsiyamizning 24-moddasida esa «Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir», deyilgan. Haqiqatdan ham, hayot insonga Alloh taolo tomonidan baxshida etilgan eng buyuk ne'matdir. Undan mahrum etish esa insonparvarlikka ziddir. Jinoiy jazoni liberallashtirish borasidagi muhim yutuqlarimizdan biri, mamlakatimizda 2008 yilning 1 yanvaridan jinoiy jazo sifatida o'lim jazosi bekor qilindi. Uning o'rniga umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlandi. O'zbekistonda o'lim jazosining bekor qilinishi insonning yashash huquqini e'lon qiluvchi umume'tirof etilgan xalqaro tamoyillar va me'yorlardan kelib chiqqan Bosh Qomusimizning 24-, 25-moddalari talablariga to'liq mos keladi.<sup>16</sup>

Ma'lumki, Konstitutsiyaviy huquq maqomi tizimida so'z va e'tiqod erkinligi muhim o'rin tutadi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarini liberallashtirishga, fuqarolarning so'z erkinligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Lekin, har qanday demokratik jamiyatda demokratiyaning bu shartlari amaldagi qonunlarga asosan, o'z chegara me'yor va mezonlariga egadir.

---

<sup>16</sup>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi II bo'lim "INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIK LARI VA BURCHLARI" T., «O'zbekiston». 2014

Konstitutsiyaning muhim jihatlaridan yana biri, fuqarolarga berilgan ijtimoiy huquqlarning qonuniy mustahkamlanganligidir. Asosiy Qonunimizning 39-moddasida «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta‘minot olish huquqiga ega», deb belgilab qo‘yilgan. Xususan, parlamentimiz tomonidan qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida»gi, «Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi, «Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi, «Fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida»gi va boshqa shu kabi qonunlar fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini himoya qilishning qonunchilik asoslari bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bosh Qomusimizda qonuniy mustahkamlab qo‘yilgan yana bir muhim masala fuqarolarning iqtisodiy huquqlarini samarali muhofaza etish masalasidir. Bozor iqtisodiyotining huquqiy zaminini yaratish manfaatlaridan kelib chiqib, Konstitutsiya xususiy mulk daxlsizligi va uning davlat tomonidan himoyalanihini (53-modda) hamda har kimning mulkka egalik qilish huquqini (36-modda) mustahkamladi.

Asosiy Qonunimizda bilim olish, fan-texnika taraqqiyoti masalalariga alohida e‘tibor berilib: «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta‘lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir», deyiladi.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, Bosh Qomusimizning muqaddimasidan oxirgi moddasigacha mustaqillik, demokratiya, inson huquqlari va Vatan ravnaqi g‘oyalari mustahkam o‘rin olgan.

Bugungi kunda jamiyatimiz hayotining qaysi jabhasini olmaylik, Konstitutsiyamiz huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Har bir shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish, xalqaro hujjatlarni milliyashtirish, huquqiy demokratik davlat hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirish mamlakatimiz Konstitutsiyasining asosiy maqsadidir.

Muxtasar aytganda, Konstitutsiyamiz mustaqil davlatimizning buyuk kelajak sari intilishining huquqiy poydevori va inson huquqlarini himoya qilish hamda bu boradagi xalqaro shartnomalardan kelib chiqib, bu jarayonni samarali ta'minlash uchun xalqaro standartlar talablari bajarilishining huquqiy kafolati hisoblanadi.

Endi esa yuqoridagilardan kelib chiqib Konstitutsiyamizni bevosita Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi bilan taqqoslasak.

Asrlar mobaynida diyorumizda tartib va intizomga e'tibor berish an'anaviy tus olgan. Qadimiy hoqonliklar davridan tortib, Temuriylar davrigacha va undan keyin vujudga kelgan davlatlarda mamlakatning mustahkamligi va milliy manfaatlarini ko'zlab turli qonun-qoidalar ishlatilgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi ushbu mustahkam negiz uzra qurilib, o'zbek davlatchiligi tarixiy tajribalarining asorasi (shirasi) sifatida yuzaga keldi desak yanglishmaymiz, chunonchi O'zbekiston Konstitusiyasining muqaddimasida uni tuzishda o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanilganiga ishora qilinadi.

Hozirgi zamonda har bir mamlakatning qonunlari, ayniqsa, uning asosiy qonuniga unda qancha Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining qadriyatlari aks ettirilganiga qarab baho beriladi. Aytish mumkinki, qonunlarga baho berish uchun ushbu me'yor eng asosiy va haqiqatga mos keladigan o'lchovdir, chunki inson huquqini kafolat qilish uchun jahonning barcha davlatlari tomonidan tasdiqlangan ushbu xalqaro deklaratsiyadan ustun turadigan boshqa hujjat yo'q.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi e'lon qilinganiga 50 yil (1948-1998) to'lishi munosabati bilan "Inson huquqlari: savollar va javoblar" sarlavhasi ostida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan nashr etilgan hujjatda bunday deyilgan edi: "Inson huquqi, usiz yashab bo'lmaydigan bizning azaliy, tabiiy va bashariy huquqimizdan iboratdir. Inson huquqi va asosiy erkinliklar bizga o'z insoniy

iste'dodimiz, aql va vijdonimizdan foydalanib o'z ehtiyojimizni ta'minlashga imkon beradi".

Shuningdek, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining muqaddimasida bunday deyilgan: "Bashariyat oilasi barcha a'zolarining qadr-qimmatini va ularning ajratib bo'lmaz huquqlarini e'tirof etish, jahon miqyosida erkinlik, adolat va tinchlik negizini tashkil etadi. Umumiy assambleya ushbu deklaratsiyani barcha insonlar va hamma millatlarning mushtarak istagi deb e'lon qiladi".<sup>17</sup>

O'zbekiston Konstitusiyasi, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 30 ta moddasida kiritilgan barcha qadriyatlarni qamrab olib, mukammal suratda ularni aks ettirishi bilan, jahonning yirik va demokratik davlatlari asosiy qonunlari qatorida o'ziga munosib o'rin tutadi.

O'zbekiston Konstitusiyasining Muqaddimasida o'zbek xalqi nomidan:

**birinchidan**, inson huquqlari va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqlik e'lon qilinadi;

**ikkinchidan**, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligi tan olinadi;

**uchinchidan**, insonparvar demokratik davlat barpo etishi ko'zlanadi;

**to'rtinchidan**, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsad qilib qo'yiladi.

Mazkur muqaddimada zikr etilgan bu asosiy prinsiplar, boshqa bir necha qoidalar bilan birga O'zbekiston Asosiy Qonunining ichki mazmuni, ruhi va mohiyatini ifodalab, unda kiritilgan 128 moddaning mazmunini qisqacha ifodalab beradi.

---

<sup>17</sup>"Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi" Preambula 10.12.1948y 4-bet

Konstitusiyaning 13-moddasiga binoan, O'zbekistonda qonunchilik demokratik, umuminsoniy prinsiplarga asoslanib, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa dahlsiz huquqlari, oliy qadriyat hisoblanadi, demokratik huquq va erkinliklar, konstitusiya va qonun bilan himoya qilinadi. Ushbu modda o'zining yorqin va komil ifodasi bilan, inson maqomini va uning asosiy huquqlarini eng yuksak va oliy darajaga ko'taradi.

O'zbekiston Konstitusiyasining eng muhim tomonlaridan biri shundan iboratki, bu sohada faqatgina umumiy prinsiplarni zikr etib o'tish bilan cheklanib qolmay, inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini ayrim boblarda keng ko'lamda aks ettirib, ularning himoyasi uchun kafolat beriladi.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida zikr etilgan inson asosiy huquqlari va erkinliklari ifodasini O'zbekiston Konstitusiyasining quyidagi moddalarida yaqqol ko'rish mumkin:

1. teng fuqarolik huquqi (21- modda);
2. yashash huquqini himoya qilish (24- modda);
3. har kimning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egaligi, qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emasligi (25 - modda);
4. hech kimning qiynoqqa solinmaslik va aybi aniqlanmaguncha aybdor hisoblanmaslik holati (26- modda);
5. fuqarolar turar joyi, telefon yozishmalari daxlsizligi (27- modda);
6. so'z, fikr va e'tiqod erkinligi va uni tarqatish huquqi (29- modda);
7. din va vijdon erkinligi (31- modda);
8. fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi (32 - modda);
9. mulkdorlik huquqi va erkin kasb tanlash (38-39- moddalari);

10. qonunga muvofiq siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalari tashkil etish (56- modda)

11. saylash va saylanish huquqi (117- modda) va boshqa ko'p moddalarda xalqaro miqyosda e'tirof etilgan insonning asosiy huquqlari va erkinliklari o'z munosib o'rnida har tomonlama aks ettirilib, konstitusiya va boshqa qonunlar bilan kafolatlangan.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining uchinchi moddasi: "Har kim yashash va dahlsizlik huquqiga ega".

O'zbekiston Konstitusiyasining 24-moddasi: "Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir". Shuningdek, 25-moddada "Har kim erkin va shaxsiy dahlsizlik huquqiga ega" deb ta'kidlanadi.<sup>18</sup>

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 19-moddasida hech kimni o'zboshimchalik bilan hibsga olish va qamoqda saqlash mumkin emasligi ta'kidlansa, O'zbekiston Konstitusiyasi 25-moddasining ikkinchi xat boshida "Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas" deyiladi.

Yuqorida berilgan qisqa misollardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Konstitusiyasida Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining barcha qadriyatlari yetarli darajada va to'laroq shaklda ifoda etilib himoya qilingan. Masalan, 24-moddada "Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir" iborasi bilan insonning yashash huquqi va shaxsiy dahlsizlik huquqi jiddiy suratda himoya ostiga olingan.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil O'zbekistonning Konstitusiyasi barcha demokratik qoidalar, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslanib, Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lgan barcha davlatlar tomonidan tasdiqlangan Inson huquqlari

---

<sup>18</sup>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 11 bet T., «O'zbekiston». 2014

umumjahon Deklaratsiyasining barcha qadriyatlarini o'zida aks ettirgan milliy-tarixiy hujjatdir.

Konstitutsiya o'zbek xalqiga milliy, demokratik huquqiy davlat soyasida yashash uchun huquqiy sharoit yaratib berib, ularni bozor iqtisodiyotiga va bu yo'ldan yangi hayot ufqlari tomon yo'llab boradi hamda O'zbekiston Respublikasiga jahon miqiyosida buyuk demokratik davlatlar qatorida yuksakva e'tiborli o'rin tutish uchun yordam beradi.

## **2.2. Inson huquqlariga oid xalqaro paktlar,shartnomalarda aks ettirilgan normalarni milliy qonunchilik tizimiga kiritish va bu jarayondagi muammolar**

Inson huquqlari muammosi — hozirgi zamonning eng dolzarb muammolaridandir. Inson huquqlari — bu jamiyatning eng oliy qadriyati, himmatidir. Inson huquqlari — bu muhim konstitusiyaviy institutdir. Inson huquqlari — bu butun insoniyatning intilishlari, orzu-umidlarini o‘ziga jamlagan keng qamrovli tushunchadir.

Inson huquqlarini himoya qilish mustaqilligimiz qomusi bo‘lmish Konstitusiyaning asosiy tamoyili, O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy tizimini tubdan isloh qilishning asosiy yo‘nalishi va yakuniy maqsadidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov asarlarida quyidagi besh strategik yo‘nalish belgilab berilgan:

birinchidan, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmini taminlash;

ikkinchidan, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillari va meyorlari asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish;

uchinchidan, qabul qilintan qonunlarga og‘ishmay amal qilish mexanizmini ishlab chiqish va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qonun ustuvorligini taminlash;

to‘rtinchidan, sudlov islohotini amalga oshirish yo‘li bilan butun sud tizimini demokratlashtirish;

beshinchidan, aholi, ayniqsa yoshlar va mansabdor shaxslar o‘rtasida huquqiy tarbiya ishlarini tubdan yaxshilash, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish.

Inson huquqlari masalasiga xalqaro munosabatlarda ham tobora keng ahamiyat berilmoqda. Inson huquqlarini himoya etishga qaratilgan ko‘plab deklaratsiya, xartiya va bitimlar qabul qilingan bo‘lib,ularda inson va uning haq-huquqlarini

qanday qilib himoya qilish qoidalari, me'yorlari mustahkamlangan. Totalitar tuzum hukmronlik qilgan yillarda O'zbekistonda inson huquqlariga tegishli bo'lgan xalqaro hujjatlar haqida deyarli hech narsa deyilmas edi. O'zbekistonda huquqiy davlat qurilishiga o'tish munosabati bilan, birinchi navbatda, inson huquqi masalasiga alohida e'tibor berilib, bu masala omma orasida keng ko'lamda o'rganila boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov, mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarining ustunligidan kelib chiqadigan xalqaro miqyosda qabul qilingan yangi yuridik tamoyil vujudga keltirilganligini va uning ahamiyatini alohida qayd qilgan edi. Bugungi qonunlarimiz ana shu tamoyil, rivojlangan mamlakatlar tajribalari asosida xalqaro huquq qoidalari talabiga javob beradigan darajada qabul qilinmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda inson huquqlari me'yorlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Lekin shuni ham unutmaslik kerakki, xalqaro hujjatlarni birdaniga va bevosita milliy qonunchilikka kiritish bu juda ham qiyin va mas'uliyatli jarayondir. Chunki, har bir xalqaro huquqning mustaqil sub'ekti bo'lgan davlatning asosini, tayanchini bu avvalo uning eng katta boyligi hisoblangan uning Xalqi tashkil qiladi. Shuni inobatga olgan holda, xalqaro hujjatlarni implementatsiya qilish jarayonida, xalqimizning o'tmishi, buguni va kelajagini o'ylagan holda, xalqimizning milliy mentalitetidan kelib chiqqan holda, xalqimizning huquqiy madaniyatini hisobga olgan holda va albatta uning asl ma'naviy qiyofasini saqlagan holda yondashish maqsadga muvofiqdir.

Aynan shuning uchun ham bu jarayonlar birdaniga, tez sodir bo'lmaydi. Bu juda ham ko'p vaqtni talab qiladi. Avvalo, tegishli vakolatga ega bo'lgan ya'ni O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'rish huquqiga ega bo'lgan yo Parlament yoki Prezident tomonidan muayyan xalqaro shartnoma tuziladi yoki muayyan xalqaro shartnomaga qo'shilish to'g'risida imzo chekiladi. Shundan so'ng esa quyidagi shartnoma o'rganish uchun Parlament muhokamasiga tashlanadi. Agar

shartnoma shartlari har ikkala tarafni qanoatlantirsa, tomonlarda hech qanday e'tirozlar bo'lmagan taqdirda, bu hujjat milliy qonunchiligimizga ziyon keltirmasligiga ishonch hosil qilingandagina u Parlament Majlisining muhokamalaridagi mavzusiga qo'yiladi. Ko'pchilik ovoz bergan taqdirda ushbu hujjatni ratifikatsiyasi to'g'risidagi qonun qabul qilinadi. Oxirgi jarayon esa bu Ommaviy Axborot Vositalarida e'lon qilinishi bilan ushbu hujjatning real hayotdagi faoliyati yuzaga keladi.

Albatta bu jarayonlarga asosiy manbaa bo'lib bu O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Qonunlari xizmat qiladi. Misol uchun, "O'zbekiston Respublikasining Xalqaro Shartnomalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni bu borada dasturul amal bo'lib xizmat qilmoqda. Bu qonun 22 dekabr 1995 yil qabul qilingan bo'lib u 5 bob va 43 ta moddadan iborat.<sup>19</sup> Ushbu qonunning 2 moddasi "Xalqaro shartnomalar to'g'risidagi qonun hujjatlari" deb nomlanib unda xalqaro shartnomalarga qo'yilgan talablar bayon qilinga unga ko'ra: "...O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalariga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, shuningdek ushbu qonunga hamda shartnomaning o'z qoidalariga muvofiq tuziladi, bajariladi, to'xtatib turiladi va denonsatsiya qilinadi..." deb belgilab qo'yilgan.

3 moddada esa biz Xalqaro shartnoma tushunchasi haqida bilib olishimiz mumkin. Unga ko'ra "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi-respublikaning bir yoki bir nechta davlat, xalqaro tashkilot yoxud xalqaro huquqning boshqa sub'ektlari bilan xalqaro munosabatlar sohasidagi huquq va majburiyatlariga doir teng huquqli va ixtiyoriy kelishuvidir" deb belgilab qo'yilgan.

---

<sup>19</sup> "ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ХАЛҚАРО ШАРТНОМАЛАРИ ТЎҒРИСИДА" ГИ ҚОНУНИ 1995 Й 22 СЕНТЯБРЬ

7 modda bu “Xalqaro Shartnomalarni tuzish huquqi” deb nomlanib unga ko’ra bu huquqga:”O’zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish huquqi davlatga tegishlidir va u quyidagicha tuziladi:

-O’zbekiston Respublikasi nomidan – davlatlararo shartnomalar;

-O’zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan – hukumatlararo shartnomalar;

-O’zbekiston Respublikasi vazirliklar va idoralar nomidan – idoralararo shartnomalar.

8, 9 ,10 moddalar esa bu xalqaro shartnomalar tuzish taklifi huquqiga ega bo’lgan sub’ektlar haqida.Unga ko’ra O’zbekiston Respublikasi Parlamenti, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Tashqi Ishlar Vazirligi ushbu huquqga ega hisoblanadi.

14moddaga e’tiborimizni qaratadigan bo’lsak u “O’zbekiston Respublikasining ratifikatsiya qilinadigan xalqaro shartnomalari” deb nomlanib unga ko’ra: “ Konstitutsiyaga muvofiq O’zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari Oliy Majlis tomonidan ratifikatsiya qilinadi.”

21 modda “Xalqaro shartnomalarga qo’shilish” deb nomlanadi.

23 moddaning mazmun mohiyati : “Xalqaro shartnomalar O’zbekiston Respublikasi uchun ushbu Qonunga muvofiq shartnomada nazarda tutilgan yoki ahdlashuvchi tomonlar o’rtasida kelishilgan tartibda va muddatlarda kuchga kiradi.”

25 modda bu Xalqaro shartnomalarni e’lon qilishga bag’ishlangan bo’lsa , 26 modda esa o’z navbatida Xalqaro shartnomalarni ro’yxatdan o’tkazish haqidadir.

Qonunning IV bobi “O’zbekiston Respublikasiningxalqaro shartnomalarini bajarish” deb nomlanadi va u o’zida 24 – 31 moddalarni qamrab oladi.

Xalqaro shartnomalarni to'xtatish yoki undan chiqish tartibi esa 33 moddada o'z aksini topgan : “Xalqaro shartnomani to'xtatish yoki O'zbekiston Respublikasining undan chiqishi :

1) shartnoma qoidalariga muvofiq

2)shartnomaning boshqa ishtirokchilari bilan maslahatlashuvlar asosida istalgan vaqtda amalga oshirilishi mumkin.”

Umuman olganda bir xalqaro hujjat milliy qonunchilikka kirar ekan u juda ko'plab chig'iriqlardan o'tishi talab qilinadi. Avvalo u demokratik prinsiplarga qanchalik mosligi tekshiriladi, keyin esa Parlament tomonidan o'rganib chiqiladi va lozim topilsa qabul qilinadi. Lekin afsuski bu jarayon ham ayrim kamchilik va muammolardan holi emas. Chunki, hech bir Xalqaro hujjat yo'qki u Milliy qonunchilik qolipiga yuz foiz tushsa.

Buni oldini olish uchun esa o'ylaymanki xalqaro hujjatlarni qabul qilishda uning qanchalik universal harakter kasb etishiga alohida e'tibor qilishimiz lozim.

Yana bir jiddiy muammolardan biri esa bu shubhasiz uning ijrosi bilan bog'liq jarayondir. Ming afsuski aholini birgina axborot bilan ta'minlanganlik miqyosida hali ko'p amaliy ishlar qilishimiz talab qilinadi.

### **2.3. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari implementatsiyasi bo'yicha milliy tajriba va amalga oshirilayotgan islohotlar.**

Bugungi kunda davlatlar tomonidan inson asosiy huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi Yevropa konvensiyasining davlatlarning milliy huquqiy tizimini tarkibiy qismiga aylanishi mazkur konvensiyaning milliy amaliyotda to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilishiga zamin yaratdi. Insonning asosiy huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi Konvensiya nafaqat davlatlaro munosabatlarni balki davlatning o'z fuqarolari, uning hududida joylashgan barcha jismoniy va yuridik shaxslar bo'yicha majburiyatlarini belgilaydi. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini ratifikatsiya qilgan davlat inson huquqlarini ta'minlash kabi suveren vakolatidan voz kechadi<sup>20</sup>.

Har bir jismoniy va yuridik shaxs o'z huquqiy hulq-atvori Inson huquqlari va asosiy erkinliklariga asoslashi mumkin. Agarda mazkur konvensiyada nazarda tutilgan huquqlar davlat tomonidan buzilayotgan bo'lsa, jismoniy va yuridik shaxs Yevropa konvensiyasi asosida milliy sudlarda o'zining poymol etilgan huquqlarini tiklashi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, Yevropa Kengashidagi barcha davlatlarning milliy qonunchiligi inson huquqlari va asosiy huquqlari to'g'risidagi Yevropa Konvensiyasiga milliy qonunchiligini muvofiqlashtirish va shunga monand inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashi shartdir.

Zero, garchand "Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risida"gi Yevropa Konvensiyasi xalqaro shartnoma tariqasida qabul qilingan bo'lsada, davlatdagi aholi va hokimiyat organlari o'rtasidagi o'ziga xos kelishuv sifatida talqin etilishi mumkin. Bu shartnomaga Yevropa mintaqadagi barcha davlatlar rioya etishlari shart bo'lib, rioya etib ham kelmoqda. Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risidagi Konvensiya milliy huquqiy tizim bilan ta'minlanib, Yevropa huquqi, inson huquqlari bo'yicha Yevropa mexanizmlari doirasida institutsional mintaqaviy mexanizmlar bilan ta'minlanmoqda.

---

<sup>20</sup>Е.А. Лукашева Общая теория прав человека.М.,1996.-С.48.

Konstitutsiyamiz Muqaddimasida qayd etilganidek, O'zbekiston "Xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligi"ni tan oladi.

Shu ma'noda, xalqaro huquq asoslaridan xabardorlik fuqarolarimizning o'z huquqlarini himoya etishlari ham muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston BMT, Yevropa xafsizlik va hamkorlik tashkiloti kabi 40 dan ziyod nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo hisoblanadi. Mamlakatimiz dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan, dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlari bilan o'zaro diplomatik munosabatlar o'rnatgan.

Yurtimizda 88 ta xorijiy davlat elchixona va vakolatxonalari ochilgan, 24 ta hukumatlararo tashkilot va 13 ta xalqaro nodavlat tashkilot vakolatxonalari ishlab turibdi. Istiqlol yillarida mamlakatimiz ko'plab muhim xalqaro shartnomalar va konvensiyalarga qo'shildi.

Bugungi kunda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash masalasi davlatlarga xos sof ichki vazifa doirasidan chiqib, ularning BMT Ustavi: xalqaro paktlar, konvensiyalar bo'yicha zimmasiga olgan majburiyatlariga aylanganidan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Zero, alohida har bir davlatda va butun dunyoda inson huquqlariga rioya etilishi milliy va yalpi barqarorlikni, xalqaro xavfsizlikni ta'minlashning ustivor shartidir.

Xalqaro hamjamiyat inson huquqlari sohasiga oid andozalarni yaratish yuzasidan katta tajribaga ega. Davlat o'z hokimiyat va boshqaruv idoralari hamda mansabdor shaxslari timsolida inson huquqlariga rioya etilishi bo'yicha kafil hisoblanadi.

Bu qoida Konstitutsiyamizning 93-moddasi<sup>21</sup>da mustahkamlab qo'yilgan.

---

<sup>21</sup>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2014-yil. 47-bet.

O'zbekiston tinchlik-osoyishtalik sharoitida amal qiladigan universal mazmundagi xalqaro shartnomalarga qo'shilgan. Bundan maqsad insonlar hayotiga xavf soluvchi genotsid, aperteid, terrorizm kabi xalqaro jinoyatlarga qarshi kurashishdir.

BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 9-dekabrdagi "Genotsid jinoyatini oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risida"gi Konvensiyasida: genotsid u tinch yoki urush davrida sodir etilishidan qat'i nazar, xalqaro huquq me'yorlarini buzuvchi jinoyat ekanligi ishtirokchi-ahdlovchi tomonlar tasdiqlaydilar va ular uning oldini olish choralarini ko'rish va uni sodir etganlik uchun jazolash majburiyatini oladilar"<sup>22</sup> deb ko'rsatilgandir.

Ushbu Konvensiyaning 2-moddasida "genotsid" so'zi ostida qaysidir, milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni shundayligicha to'la yoki qisman yo'qotishni mo'ljallab sodir etadigan quyidagi harakatlar tushuniladi:

- a) shunday guruh a'zolarini o'ldirish;
- b) shunday guruh a'zolariga jiddiy jismoniy yoki aqliy shikast yetkazish;
- s) qaysidir guruhni ataylab to'la yoki qisman yo'q qilishga mo'ljallangan hayotiy shart-sharoitlar yaratish;
- d) shunday guruh muhitida bola tug'ilishining oldini olishga mo'ljallangan chora-tadbirlar;
- e) bolalarni insonlarning bir guruhidan boshqasiga zo'rlab o'tqazish deb ta'rif berilgan.

---

<sup>22</sup> BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 9-dekabrdagi "Genotsid jinoyatini oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risida"gi Konvensiyasi. T.: 2001-yil, 25-bet.

Shuningdek, Konvensiyada: “genotsid yoki genotsid sodir qilish maqsadida til biriktirish; genotsid sodir etishga to’g’ridan-to’g’ri va oshkora ig’vogarlik qilish; genotsid sodir etishga suiqasd qilish; genotsidda birga qatnashish kabi hatti-harakatlarni sodir etishda ayblanadigan shaxslar yana shu xatti-harakat sodir etilgan hududdagi davlat vakolatli sudi yoki shunday sud qilish huquqini tan olgan ushbu konvensiya tomonlariga nisbatan yuridikstiyaga ega bo’la oladigan xalqaro jinoyat sudi tomonidan sud qilishlari lozim”.

Bundan tashqari “Inson huquqlari Umumjahon Deklarastiyasi”da e’lon qilingan barcha huquq va erkinliklarga ega bo’lish maqsadida 1973-yil 30-noyabrda qabul qilingan “Apertheid jinoyatini to’xtatish va uning uchun jazolash to’g’risida”gi Bosh Assambleyaning Konvensiyasini misol keltirish mumkin. Konvensiya Muqaddima va 16-moddadan iboratdir.

Konvensiyaning asosiy vazifasi Apertheid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash to’g’risida xalqaro konvensiya xalqaro va milliy darajalarda apertheid jinoyatini to’xtatish va uning uchun jazolash maqsadida, yangi, yanada samaraliroq choralar qabul qilish imkoniyatini yaratishdir.

Aparteid jinoyati-bu Afrikaning janubiy qismida amaliyotda qo’llanilayotgan ko’rinishdagi shunga o’xshash irqiy segregatsiya va diskriminatsiya siyosati va amaliyotini o’z ichiga olgan bo’lib, bir irqiy guruh kishilari ustidan hukmronlik o’rnatish va uni quvvatlash hamda muntazam ravishda ezish maqsadida sodir etiladigan quyidagi shafqatsiz harakatlarni anglatadi.

a) irqiy guruh yoki guruhning a’zosini yashash va shaxsiy erkinlik huquqidan mahrum qilish;

1) irqiy guruh yoki guruh a’zolarini o’ldirish yo’li bilan;

2) irqiy guruh yoki guruhlarning a’zolariga jismoniy shikast yetkazish yoki aqlini ishdan chiqarish hamda ularning erkinligi va qadr-qimmatiga tajovuz qilish

yo'li bilan yoki ularga nisbatan qiynoq, yoki qattiq, vaxshiyona yoki qadr-qimmatini kamsituvchi muomala va jazo qo'llash natijasida;

3) irqiy guruh yoki guruhlarning a'zolarini o'zboshimchalik bilan hisobga olish va noqonuniy ravishda qamoqlarda ushlab yo'li bilan;

b) irqiy guruh yoki guruhlar uchun uni yoki ularni jismoniy jihatdan to'liq yoki yo'q qilishga mo'ljallangan hayot sharoitlarini ataylab yaratish;

v) irqiy guruh yoki guruhlar mamlakat siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ishtirok etishga qarshilik ko'rsatishni mo'ljallaydigan har qanday tushadigan qonuniy va boshqa choratadbirlar hamda shunday guruh yoki guruhlarning to'la rivojlanishiga halaqit beruvchi sharoitlarni ataylab yaratish;

g) irqiy guruh yoki guruhlarning a'zolari uchun ijaraqo'yilgan rezervatsiya va gettolarda tuzish vositasida aholini irqiy belgiga qarab ajratishga, turli irqiy guruhlarning a'zolari o'rtasida aralash nikohlarni ta'qiqlashga, irqiy guruh yoki guruhlarga yoki ularning a'zolariga qarashli er ekspropriatsiya qilishga yo'naltirilgan istalgan tadbirlar, shu jumladan qonuniy tushadigan tadbirlar;

d) irqiy guruh yoki guruhlar a'zolarining mehnatini ekspluatatsiya qilish, xususan ularning majburiy mehnatidan foydalanish;

j) tashkilotlar va shaxslarni ularni aparteidga qarshi chiqarishlari uchun asosiy huquq va erkinliklaridan mahrum qilish kabi holatlar tushuniladi.

Mazkur konvensiya ishtirokchi davlatlarga aparteid jinoyatini oldini olish, to'xtatish va jazolashga doir BMT va boshqa vakolatli organlarning qarorlarini tan olish va bajarish majburiyatlarini yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasi ham xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatida xalqaro miqyosida belgilangan huquqiy hujjatlarni tan oladi va ijrosini bajarilishini o'z milliy qonunlarida normalar o'rnatib kelmoqda. Masalan,

O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining VII-bobi: tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar deb nomlanib, unda: urushni targ'ib qilish (150-modda); Agressiya (151-modda); urushning qonun va udumlarini buzish (152-modda); Genotsid (153-modda); Yollanish (154-modda); Terrorizm (155-modda); Milliy, irqiy yoki diniy adovat qo'zg'atish (156-modda) jinoyatlari uchun sanksiyalar belgilangandir. Shuningdek mazkur kodeksning 11-moddasida: "Amaldagi qonunlar, xalqaro shartnomalar yoki bitimlarga muvofiq chet el fuqarolarining javobgarligi to'g'risidagi masala O'zbekiston Respublikasi sudlariga tegishli bo'lmasa, ular O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyat sodir etgan holda, xalqaro huquq normalariga muvofiq hal qilinadi" - deb ta'kidlab qo'yilgandir.

Bugungi kunda inson huquqlarinixalqaro darajada himoya qilish masalalari, asosan BMT Ustavi, inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro paktlar kabi 80 dan ortiq hujjatda o'z aksini topgan. O'zbekiston inson huquqlari sohasida 60 dan ziyod ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarga qo'shilgan.

O'zbekiston 1991-yil 31-avgustda davlat mustaqilligidan so'ng roppa-rosa bir oy muddat o'tgach inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasiga qo'shildi, ushbu Deklaratsiya O'zbekistonning xalqaro sohada tasdiqlagan birinchi xalqaro hujjat hisoblanadi. Shuningdek mamlakatimizdan 1995-yilda inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hamda fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga doir birinchi fakultativ protokol rattifikatsiya qilindi.

O'zbekiston YuNESKO xalqaro-huquqiy hujjatlari, xususan, 1960-yilgi ta'lim sohasidagi kamsitishlarga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya bilan 1989- yilgi Texnikaviy va hunar ta'limi to'g'risidagi Konvensiyaga ham qo'shilgan.

Ma'lumki, Universal xalqaro shartnomalar qatoriga Xalqaro Mehnat Tashkiloit (XMT) xalqaro hujjatlari ham kiradi.

Bugungi kunda O'zbekiston Xalqaro Mehnat Tashkilotining inson huquqlariga rioya etilishini ta'minlashda ijobiy natijalarga erishishga qaratilgan barcha asosiy konvensiyalarga qo'shilgan.

O'zbekiston Respublikasi Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT) a'zoliciga 1992-yil 30-yanvarda EXHTning Pragadagi ikkinchi uchrashuvida qabul qilingan edi. O'zbekiston ushbu obro'li xalqaro tashkilot a'zosining barcha majburiyatlarini o'z zimmasiga oldi. Shu orqali O'zbekistonning Yevropa va Kanada bilan ham hamkorlik qilishiga yo'l ochildi.

Ma'lumki, insoniylik mezonlari kompleks tushuncha bo'lib, u har qanday davlat rivojlanishining ham iqtisodiy, ham demokratik ko'rsatkichlarini qamrab oladi. EXHT bu ko'rsatkichlarga barqarorlik va xavfsizlik kafolatlari sifatida rioya etishga alohida e'tibor berib kelmoqda.

Bunda inson huquqlariga rioya etilishini va fuqarolik jamiyatini qurishni ta'minlash mexanizmlarni ijtimoiy portlashlar hamda fuqarolik va elatlararo majorolarning oldini olish chora-tadbirlari borasida birinchi o'rinda turadi.

1992-yil 26-fevralda Finlyandiya poytaxti Xelsenkida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov EXHT 1975-yilgi yakunlovchi hujjatni, 27-oktyabrda esa ya'ni Yevropa uchun Parij Xartiyasini imzoladi.

Agar 2000-yilda sud xatolarining deyarli yarmi nazorat tartibida tuzatilgan bo'lsa, 2009-yil yakunlariga ko'ra, bunday holatlarning 85 foizdan ortig'i apellatsiya va kassatsiya tartibida bartaraf etilgan.

2008-yilda "Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi bu borada g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi.

Og'ir va o'ta og'ir toifadagi jinoyatlarning qariyb 75 foizi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga o'tkazildi.

Jinoyat kodeksining 11 ta moddasiga yetkazilgan moddiy zararning o'rni qoplangan taqdirda ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanmasligi haqidagi qoidalar kiritildi.

O'zbekistonda hozirgi kunda qamoqdagilar soni jahon miqyosida eng past ko'rsatkichni, ya'ni har 100 ming nafar aholiga 166 kishini tashkil qiladi. Qiyoslash uchun aytish mumkinki, Rossiyada bu ko'rsatkich 611 kishini, AQSHda 738 kishini tashkil etadi. O'zbekistonda dunyodagi eng liberal jinoiy jazo tizimlaridan biri yaratildi. Xalqaro ekspertlarning bu boradagi qiyosiy tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi Germaniya va Polshada 5 ta, Belgiya va Rossiyada 6 ta, Daniyada 9 ta, Shvetsiyada 13 ta, Fransiyada 18 ta, Gollandiyada 19 ta jinoyat turi bo'yicha tayinlanishi mumkin.

O'zbekistonda esa umrbod ozodlikdan mahrum qilish mamlakatimizda xotin-qizlarga, jinoyat sodir etgan paytda 18 yoshga yetmagan shaxslarga va yoshi 60 dan oshgan erkaklarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

2008-yilning yanvaridan buyon sudlar tomonidan dastlabki tergov organlariga 700 martadan ortiq holatda mazkur ehtiyot chorasini qo'llash rad qilingan.

Sud amaliyotiga 2001-yildan boshlab yarashuv instituti kiritildi va u samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

53 ta jinoyat tarkibi bo'yicha yarashuv institutini qo'llash imkoniyati nazarda tutilgan.

Yarashuv institutining joriy etilishi natijasida o'tgan davr mobaynida 100 ming nafarga yaqin fuqaro jinoiy javobgarlikdan ozod etildi.

2001-yilda yangi tahrirda qabul qilingan “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq fuqarolar prokuror nazorati ob‘ektlari qatoridan chiqarildi<sup>23</sup>.

Yakunlovchi marosimda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov o‘z mamlakatining UmumYevropa jarayoniga qo‘shilish irodasi va xohishini tasdiqladi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, biz Yevropada ehtiyotkorlik bilan tarbiyalangan inson qadr-qimmatlarini e’tirof etamiz va ma’qullaymiz. Inson huquqlari va erkinliklari va erkinliklarini ta’minlash, ozchilikni tashkil qilgan millatlarni himoya qilish, har bir fuqaroga uning millati diniy e’tiqodlari, ijtimoiy maqomi va kelib chiqishidan qat’i nazar maqbul turmush sharoitlarini yaratish shular jumlasidandir. Shu bilan birga, mamlakatimizda keyingi yillarda ham ko‘plab amaliy ishlar qilindi. Masalan, 2010-yil 3-may kuni Toshkentda Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashi 43-yillik majlisi, 2010-yil 11-iyunda Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat raxbarlari Kengashining majlisi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan sammiti yalpi majlisidagi ishtiroki va nufuzli tashkilot minbaridan nutq so‘zlagani hamda boshqa xalqaro ahamiyatga molik tadbirlarni aytishimiz mumkin.

---

<sup>23</sup>I.A. Karimov Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. // O‘zbekiston ovozi, 2010-yil 13-noyabr, 1-4 betlar.

## Xulosa

O'zbekistonning demokratik, insonparvar, adolatli fuqarolar jamiyati va huquqiy davlat qurish yo'lidagi asosiy maqsadi, vazifasi, yo'nalishi inson huquqlarini himoya qilish va ularni to'la amalga oshirishga qaratilgandir. Bu borada esa xalqaro hujjatlar nihoyatda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Inson huquq va erkinliklarini butun choralar bilan rivojlantirish va takomillashtirish respublikamiz hayotining asosiy tamoyillaridandir. Konstitutsiyaviy mustaqil o'zbek davlati va fuqarolarning o'zaro munosabatlarini qonuniy ifoda etadi. Haqiqiy xalq hokimiyati, bozor iqtisodiga o'tish, mulkchilikning yangi shakllari joriy etilishi jamiyatimizda haqiqiy shaxs ozodligining qaror topishiga olib keldi. Xalqaro hujjatlarni milliy qonunchilikimizga transformatsiyasi va implementatsiyasi esa bizni bu borada xalqaro standartlar bilan milliy tajribamizni oshirishiga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishning birinchidan- qonuniy, ikkinchidan-tashkiliy, uchinchidan- tarbiyaviy va to'rtinchidan- xalqaro - huquqiy asoslari yaratilgan va bu huquqlar kafolotlarini davlat o'z zimmasiga olgan. Asosiy qonunimiz bo'lmish Konstitutsiyaning 43 - moddasida bu haqda shunday deyilgan: «Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi». Bundan tashqari respublikamizning o'ziga xos xususiyati va an'analari e'tiborga olingan holda konstitutsiyamizda demokratik va inson huquqlariga oid quyidagi muhim qoidalar ham mustahkamlangan:

1. Demokratiya va inson huquqlari hamda erkinliklarini tan olish va himoya qilish - bu davlat majburiyatidir.
2. Inson huquqlari va erkinliklari xalqaro huquqiy andozalarga mos kelishi va bu sohada xalqaro huquqning ustuvorligi.
3. Inson huquqlari va erkinliklari unga tug'ilganidan boshlab taalluqlidir, ya'ni tabiiy huquq g'oyasining, nazariyasining e'tirof etilishi.

4. Xalqaro huquq normalari andozalariga mos holda hammaga va har kimga inson huquqlari hamda erkinliklarining teng va barobar taalluqliligi.

5. Xalqaro huquq prinsiplariga muvofiq inson huquqlari va erkinliklari davlat idoralari faoliyatining mazmunini tashkil etishi.

6. Xalqaro miqyosida tan olingan qoida-fuqarolarning kafolatlangan sud himoyasi bilan ta'minlanishi.

7. Inson huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslar huquqlarini buzmaslik zarurligi.

Jamiyatimizda huquqiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari, hokimiyat, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari, jamoat tashkilotlari, o'z-o'zini boshqarish organlarining rahbarlari va davlatimizning har bir fuqarosi yuksak huquqiy madaniyatga ega bo'lsalar, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarni bu boradagi ahamiyatini tushunib yetsalar va albatta bo'layotgan jarayonlarga o'z munosabatini bildirishi va pozitsiyasida turishi qonuniylikni ta'minlash va inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilish mexanizmi samarali ishlaydi. Xullas, inson huquqlari va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish jamiyatimizdagi davlat va jamoat tashkilotlarining, huquqni muhofaza qilish organlarining, har bir mansabdor shaxsning oldida turgan yuksak vazifasidir. Shunday ekan, xalqaro tajriba bu borada bizni faqat va faqat rivojlanishimizga zamin yaratishini ta'kidlab o'tish joiz. Shuning uchun xalqaro hujjatlarni implementatsiya qilish jarayoniga davlatimiz katta e'tibor qaratishi lozim.

Biz o'tgan yillar mobaynida inson huquqlarini moslashtirishni sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tarishga imkon beruvchi zarur zaminni, poydevor, barqaror asosnigina yarata oldik. Bunda xalqaro hujjatlarni ahamiyati beqiyosdir.

Biz bor sa'y-harakatimiz, amaliy ishlarimiz bilan odamlarni o'z huquq va erkinliklarini himoya qilinishiga muntazam ishontirib bormog'imiz kerakki,

islohotlar jarayonida faqat ularning o'zlari faol ishtirok etgan taqdirda, belgilangan maqsadlarga etish uchun jamiyatning har bir a'zosi jonini jabborga berib ter to'kkan taqdirda inson huquqlarini himoya qilishning ko'zlangan maqsadiga erishish mumkin. Biz buning uchun yuqori huquqiy madaniyatga ega bo'lmog'imiz, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro tajribaga ham katta ahamiyat berib ularga o'zimizni mustaqil fikrimizni bayon qila olishimiz lozim bo'ladi. Biz yuqorida inson huquqlarini himoya qiluvchi davlat va nodavlat muassasalarining insonni ko'p qirrali manfaatlariga javob beruvchi nizomlari, tadbirlari belgilanganini guvohi bo'ldik. Lekin bu yerda asosiy gap ularda belgilangan chora- tadbirlarning quruq gapga aylanib qolishiga yo'l qo'ymaslikdir. Ya'ni aytilganidek : "Qonun ijrosi bilan go'zaldir."

Fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish esa, inson huquqlarining amalda to'la ta'min etilishining muhim shartidir. Shu o'rinda inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarni bosqichma – bosqich o'z mentalitetimizga xoz tarzda milliylashtirishimiz, o'zimizga moslashtirishimiz davlatimizni bu boradagi istiqbolini belgilaydi.

### **Tavsiya va takliflar**

"Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustivor bo'lib, u insonning o'zini-o'zi kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi"<sup>24</sup>.

Muhtaram Prezidentimizning ushbu so'zlari bevosita fuqarolik jamiyatini ijtimoiy makon ekanligi va bu makonda inson manfaatlari bosh omil ekanligi ta'kidlanadi va bevosita bu makonda inson huquqlari ham kafolatlanishiga qaratilgandir.

---

<sup>24</sup>I.A. Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari vatarqqiyot kafolatlari .T-O'zbekiston, 1997. 173-b

Yuqoridagilarni unutmagan holda quyidagilarni taklif va tavsiya qilishimiz mumkin:

-Inson huquqlari to'g'risidagi universal harakterdagi qonun komplekslarini ishlab chiqish;

-Inson huquqlari to'g'risidagi universal harakterdagi qonun komplekslarini amaliyotga keng jalb qilish;

-Xalqaro huquq normalarini milliy huquq tizimiga moslashtirish jarayonini to'g'ri tashkil qilish maqsadida qonunchilik bazasini yanada mustahkamlash;

-Umuminsoniy prinsiplarni O'zbekiston qonunchiligiga implementatsiya qilish ijrosi ustidan Jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish;

-Fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish;

-Huquqiy madaniyatni shakllanishida Ommaviy Axborot Vositalaridan keng va samarali foydalanish;

-Ommaviy Axborot Vositalarida aholining turli yosh qatlamlarini inobatga olgan holda ko'rsatuvlar,davra suhbatlari,viktorinalar o'tkazishni yo'lga qo'yish;

-Aholini xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilish jarayoni bilan bog'liq yangi xabar va yutuqlardan iloji boricha tezkorlik bilan xabardor qilish;

-Turli xil tashkilotlarda xalqaro miqyosidagiinson huquqlari to'g'risida davra suhbatlari va seminarlar o'tkazish;

-Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlar haqida aholiga kerakli tushunchalarni soha mutaxassislari tomonidan yetkazish va uni misollar bilan yoritish;

-Pedagoglardan esa bu borada chuqur fundamental bilimga ega bo'lish;

-Soha vakillaridan esa o'z vazifalariga yanada fidoiylik bilan yondashish;

- Biz yoshlardan esa inson huquqlarini to'la-to'kis ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini qo'llab quvvatlash va bu jarayonlarda faol ishtirok etish kabilar foydadan holi bo'lmaydi, deb ishonamiz.

Ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan "Inson huquqlari" darslarini quyidagi dars ishlanmasi asosida o'tkazilishini va tadbirlarni ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritilishi lozim bo'ladi.

**Inson huquqlari – eng oliy qadriyat (5-9-sinflar uchun).**

(Inson huquqlari darslarini o'tish bo'yicha bir soatlik dars ishlanma)

**Maqsad:**

**Ta'limiy:** O'quvchilarga inson huquqlari hamda uning ahamiyati, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlar, olib borilayotgan amaliy ishlar va bu borada qo'lga kiritilgan milliy tajribamizning ahamiyatini, o'quvchilarga inson huquqlari turlarini tushuntirib berish bu yo'lda Konstitutsiya va qonunlardan foydalanish, inson huquqlari to'g'risida yana ham kengroq tushunchalar berish.

**Tarbiyaviy:** Mavzu orqali o'quvchilarda Insonga muhabbat, hurmat, qadriyatlarini ulug'lash va albatta ularda insonparvarlik tug'ularini shakllantirish.

**Rivojlantiruvchi:** O'quvchilarda yangi huquqiy bilimlarni hosil qilish va o'z ustida ishlash hissini paydo qilish.

**Dars shiori:** Inson huquqlari muqaddas va daxlsizdir.

**Dars turi:** Noan'anaviy

**Dars metodlari:** Guruhlar bilan ishlash, suhbat, turli xil debatlar (bahs-munozaralar)

**Dars jihozi:** Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asari, mavzuga doir plakatlar to'plami, qog'oz va markerlar. O'quvchilar darsdan oldin 3 guruhga bo'linib joylashadilar.

**Darsning borishi:**

Dars O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasini jonli ijro etish bilan boshlanadi.

**Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar:**

- “Inson huquqlari” nima ?
- “Mustaqillik” so’zining ma’nosi nima ?
- “Inson huquqlari va fuqarolik huquqi” deganda nimani tushunasiz ?
- “Inson huquqlari – eng oliy qadriyat” iborasiga ta’rif bering.

**O’qituvchi:** Mamlakatimiz istiqlolga erishgach, barcha sohalar kabi inson huquqlari sohasida ham milliy tajriba yaratildi, bunda xalqimizning boy tarixiy, ma’naviy me’rosi juda katta ham amaliy ham nazariy ahamiyat kasb etdi, avvalo inson huquqlari daxlsiz deb e’lon qilindi va u Konstitutsiyamizda ham o’z aksini topdi, bu boradagi bilimlar yaxlit holatiga keltirilib universal harakterdagi qonun loyihalari ishlab chiqildi va qabul qilindi.

Inson huquqlari bu avvalo biz insonlarning uzviy, ajralmas huquqlarimiz ekanligini anglagan holda inson huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar faoliyatlari tizimli va bosqichma- bosqich amalga oshirildi. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda yangi davr boshlandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1995–2005-yillarni kurramizda Inson huquqlari o’n yilligi deb e’lon qildi. O’zbekiston Respublikasida 1997-yil – Inson manfaatlari yili, 1998-yil – Oila yili, 1999-yil – Ayollar yili, 2000-yil – Sog’lom avlod yili, 2001-yil – Onalar va bolalar yili, 2002-yil – Qariyalarni qadrlash yili, 2003-yil – Obod mahalla yili, 2004-yil – Mehr va muruvvat yili, 2005-yil – Sihat-salomatlik yili va to 2016-yil Sog’lom ona va sog’lom bola yili deb nomlanganligi va bu yillar uchun mo’ljallangan Davlat Dasturlari doirasida amalga oshirilgan ishlar buning tasdig’idir.

**Har bir guruhga quyidagi qog’ozga yozilgan ma’lumotlar beriladi.**

1-guruhga

*O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning OliyMajlis VI sessiyasida, Konstitutsiyaning to’rt yilligiga bag’ishlangan tantanali yig’ilishida va Vazirlar Mahkamasining O’zbekistonning 1996-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yakunlari hamda 1997-yildagi iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan majlisida qilgan ma’ruza va nutqlarida inson huquqlari sohasida amalga oshirilishi lozim bo’lgan quyidagi besh strategik yo’nalish belgilab berilgan:*

## 2-guruhga

*Dunyo davlatlarida inson huquqlariga oid qonunchilik tizimi quyidagi guruhlariga bo'linadi:*

- 1. Fuqarolarning shaxsiy huquqlariga oid qonunlar.*
- 2. Fuqarolarning siyosiy huquqlariga oid qonunlar.*
- 3. Fuqarolarning iqtisodiy huquqlariga oid qonunlar.*
- 4. Madaniy huquqlarga oid qonunlar.*
- 5. Inson huquqlariga oid xalqaro huquqiy hujjatlar.*

## 3-guruhga

*Hozirgi kunda davlatlar o'z Konstitutsiyalarida inson huquqlariga oid quyidagi muhim qoidalarni mustahkamlaganlar:*

- inson huquqlari va erkinliklarini tan olish va himoya qilish bu davlat*
- inson huquqlari va erkinliklari katalogi xalqaro-huquqiy andozalarga mos kelishi va bu sohada xalqaro huquqning ustuvorligi;*
- inson huquqlari va erkinliklari unga tug'ilgandan boshlab taalluqlidir, yangi tabiiy huquq g'oyasini, nazariyasini e'trof etilishi;*
- hammaga va har kimga inson huquqlari va erkinliklarining teng va barobar taalluqliligi;*
- fuqarolarning kafolatlangan sud himoyasi bilan ta'minlanishi;*

Ma'lumotlar guruhda o'qib chiqilgandan so'ng boshqa guruhlar matnlari bir biri bilan almashtiriladi va shu tariqa 3 ta ma'lumot guruhlar orasida o'rganiladi. O'qituvchi bilan ma'lumotlar haqida fikr- mulohazalar yuritiladi.

**O'qituvchi:** Inson huquqlari sohasida davlatlararo hamkorlik keng miqiyosidagi masalalarning o'z ichiga qamraydi. Unga fan, madaniyat, ta'lim, axborot almashish, kishilar o'rtasidagi aloqalar borasidagi hamkorliklar kiradi.

Davlatlararo hamkorlik markazida inson huquqlari turadi.

Xalqaro huquqning inson huquqlari masalalarini tartibga soluvchi normalari odatda xalqaro gumanitar huquq deb ataladigan va qurolli mojarolar davrida qo'llanadigan huquqini o'z ichiga oladigan xalqaro huquq sohasini tashkil qiladi. XX asirning ikkinchi davrini inson huquqlari xalqaro huquqning shakllanish davri deyish mumkin.

Inson huquqlari konsepsiyasi ko'p. Ular diniy, pozitiv, tabiiy huquqiy va boshqalar bo'lib jamiyatdagi dunyoqarashning turli tumanligi bilan tavsiflanadi. Bu xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan norma va tamoyillar asosida inson huquqlari umum e'tirof etilgan norma va tamoyillari asosida inson huquqlari sohasida davlatlararo hamkorlikning universal konsepsiyasini shakllantirishga to'siq bo'lmaydi.

Uzoq vaqt davomida muayyan shaxs huquqining buzilishi (yakka holat)da odatda davlatning ichki vakolatiga taalluqli va shu bois BMTda yoki boshqa xalqaro tashkilotlarda ko'rilmaydi deb hisoblangan. Davlat o'z aholisi

o'zaro munosabatlarini mustaqil yuridik tartibga solishi holati uning o'zboshimchalik qilishga "huquq" borligini anglatmaydi. Bunday tartibga solish jarayonida xalqaro majburiyatlar, avvalo, inson huquqlarini hurmat qilish tamoyillari hisobga olinishi lozim.

Xalqaro huquqning har qanday tamoyilini hayotga tadbiq qilish uchun ularni xalqaro huquqning shartnomaviy va odat normalarida belgilanishi lozim. **Inson huquqlarini hurmat qilish tamoyilini belgilovchi va rivojlantiruvchi xalqaro-huquqiy majburiyatlar, odatda inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlar deb ataladi.** Bu – davlatlarning nafaqat o'z yurisdiksiyasi ostidagi shaxslarga qandaydir muayyan huquq va erkinliklar tajovuz qilmaslik (masalan, irqiy, milliy va boshqa turdagi kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik, qiynoqqa solmaslik va boshqalar)dir.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki hamma yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar bu avvalo inson va uning manfaatlariga xizmat qilishi lozim. Islohotlar inson uchun, fan- texnika inson uchun, qonun- qoidalar inson uchun, uning farovon hayoti yo'lida safarbar qilinmog'i kerak. Ana shundagina biz Yurtboshimiz orzu qilgan Bozor iqtisodiyotiga asoslangan liberal huquqiy demokratik fuqarolik jamiyatini barpo qilgan bo'lamiz.

**Uyga vazifa:** Har bir o'quvchi "Mening huquqlarim" mavzusida insho yozib kelish.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarilish sari. T.18. – T.: O'zbekiston, 2010. – 280 b.
2. Karimov I. A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T.16. – T.: O'zbekiston, 2008. – 368 b.
3. Karimov I. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li.-T., "O'zbekiston", 1992. 47-bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan sammiti yalpi majlisidagi nutqi. // Xalq so'zi, 2010-yil 22-sentyabr, 1-2-b.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. // O'zbekiston ovozi, 2010-yil 13-noyabr, 1-4 betlar.
6. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish-taraqqiyotimizning muhim omilidir" nomli ma'ruzasi. // Do'stlik bayrog'i, 2010-yil 10-dekabr, 70(3031)-son, 1-4-betlar.
7. Karimov I.A. 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" nomli ma'ruzasi // Do'stlik bayrog'i, 2011-yil 25-yanvar, 6(3040)-son, 1-6-betlar.
8. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. 2011-yil 27-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi.
9. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. –T.: O'zbekiston, 1993-yil, 14-b.

10. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008 - yil.

### **Qonunlar, huquqiy normativ hujjatlar va xalqaro hujjatlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2014
2. "O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi 1991 -yil 31 - avgust konstitutsiyaviy qonuni.
3. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy Dasturi. 1997 - yil 27-avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. T.: Adolat, 2008 - yil.
5. "O'zbekiston Respublikasining xalqaro hujjatlari to'g'risida" gi Qonuni 1995 –yil 22- dekabr.
6. "O'zbekiston Respublikasining xalqaro hujjatlarini ratifikatsiyasi to'g'risida"gi Qonuni 1994 – yil 16 – aprel.
7. "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi." T., «Adolat», 1992.
8. G'.Sirojov. Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasiga sharhlar. T.: Adolat, 1999-yil.
9. «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt» 1966 yil.
10. «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt» 1966 yil

### **Maxsus adabiyotlar:**

1. Burxonova F. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi. "O'zbekiston Respublikasi — mustaqil davlat". — T.: Adolat, 1995.
2. Mamatqulov A.M. Xalqaro huquq. T.: Adolat, 1997.

3. Inson huquqlari sohasida O`zbekiston Respublikasining milliy faoliyat dasturi. T.: 1997-yil.
4. Inson huquqlari (o`quv dasturi). X.B.Bobojev, I.R.Ramazonov. T.: O`zbekiston, 1997-yil.
5. A.Saidov, Sultonov. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va inson huquqlari. T.: Adolat, 1998-yil.
6. G`.Sirojov. Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasiga sharhlar. T.: Adolat, 1999-yil.
7. X.Bobojev, M.Ahmadshoeva. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: Inson va uning huquqlari eng oliy qadriyat. T.: 2002-yil.
8. G`.Axmedov, A.Sattarov. O`zbekiston: Inson huquqlari va qonunlari. T.: Adolat, 1999-yil.
9. X.Bobojev. Inson huquqlari. T.: O`zbekiston, 1997-yil.
10. F.X.Baqoeva. Oliy Majlisning inson huquqlari bo`yicha vakili (Ombudsman) to`g`risida O`zbekiston Respublikasi qonuniga sharh. T.: 2001.
11. O.Xusanov, O.Karimova, X.Tuychieva, Z.Karimov. Inson huquqlari (maxsus kurs). T.: 1997-yil.
12. Qayumov R.O`. O`zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. — T.: Adolat, 1998-yil.
13. Bobojev H.B., Ramazonov I. Inson huquqlari. T.: 1997-yil. O`quv qo`llanmasi.
14. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O`zbekiston, 2000-yil.
15. Konstitutionnoye (gosudarstvennoye) pravo zarubejno`x stran. Uchebnik.

V 4-x tomax.Toma 1-2. Otv.red.B.A. Strashun.- M., Izdatelstvo BEK, 1985.

16. I.A.Alebastrova. Konstitutionnoye (gosudarstvennoye) pravo zarubejnyx stran. Uchebnoye posobiye.- M., "Yurisprudensiya", 2000.

17. Chudakov M.F. Konstitutionnoye pravo zarubejnyx stran: Ucheb. posobiye. –Minsk: Novoye znaniye, 2001.

18. Konstitutionnoye pravo zarubejnyx stran. Uchebnik dlya vuzov. Pod общ. red. chlena-korr. RAN, prof. M.V. Baglaya, d.yu.n., prof. Yu.I.Leybo i d.yu.n., prof. L.M.Entina. – M.: Izdatelskaya gruppa NORMA–INFRA M.

19. Baglay M.V. Konstitutionnoye pravo Rossiyskoy Federasii. Uchebnik dlya yuridicheskix vuzov i fakultetov. – M.: Izdatelskaya gruppa NORMA–INFRA M, 1998.

20. Chirkin V.Ye. Konstitutionnoye pravo zarubejnyx stran. Praktikum. – M.: Yurist.

#### **Internet saytlari :**

- 1.<<http://www.gov.uz>>
- 2.<<http://www.ziyonet.uz>>
- 3.<<http://www.press-service.uz>>
- 4.<<http://www.google.com>>
- 5.<<http://www.kun.uz>>